

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND

DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA GENDER
MASALALARI TARAQQIY ETISHINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Mamatov J.

Ilmiy rahbar: dots.Bo'riev N

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma №___).**

Samarqand – 2011.

**Mavzu: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA GENDER
MASALALARI TARAQQIY ETISHINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI.**

Kirish

**I BOB. GENDER TENGLIKNI TARIXIY NUQTAI NAZARDAN
TADQIQ ETILISHI**

I.1. Gender tenglikning ilgari surilishi tarixidan

I.2. Gender tengligi rivojlangan davlatlar tajribasi asosida

**II BOB. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKNI DASTLABKI
YILLARIDA GENDER MASALALARINING VUJUDGA KELISHI VA
RIVOJLANISHI**

II.1. Mamlakatimizda mustaqillikni qo'lga kiritish dastlabki tub o'zragishlarning gender xususiyatlari.

II.2. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitalarining tashkil topishi

**III BOB. MUSTAQILLIK SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING
GENDER MUAMMOLARI**

III.1. O'zbekistonda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni yanada yuksaltirish to'g'risida g'amxo'rlikning tobora ortib borishi.

III.2. O'zbekistonda gender tenglik g'oyalarini ilgari surilishida xotin-qizlar tashkilotlarining nufuzini yuksalib borishi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I BOB. GENDER TENGLIKNI TARIXIY NUQTAI NAZARDAN TADQIQ ETILISHI

I.1. Gender tenglikning ilgari surilishi tarixidan

Bugungi kunda, zamonaviy jamiyatda globalashuv va integrasion jarayonlarning keng ko'lamda quloch otishi, yangi muammolarni keltirib chiqara boshladi. Jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar qatoriga bugun hech ikkilanmasdan "**gender**" jarayonlarni ham kiritish mumkin.

Sosiologlar harakatimiz natijalari orasidagi tafovutga, ya'ni shu harakatlarimiz orqali vujudga keladigan kutilmagan natijalarga diqqat bilan e'tibor qaratadilar. Chunki bu holat jamiyat taraqqiyoti to'g'risida muammoga aylanib ulgurgan holatlarni aniqlashga yordam beradi. Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan "**gender**" mavzusi bugungi kunga kelib muammoli vaziyat sifatida XX asr oxirlaridek shov-shuvli ahamiyat kasb etmasa-da, o'zbeklar jamiyati va ularning turmush tarzida ushbu masalaning ijtimoiy jihatlarini sosiolog pozisiyasidan turib ilmiy tahlil etish bizga yetarlicha o'rganish huquqini beradi.

O'zbeklar turmush tarzida oila-nikoh munosabatlari musulmon Sharqi qoidalari asosida belgilab berilgan qoidalar mukammal holatda uzoq davrlardan beri ishlab kelayotganligi bilan ma'lumdir. Shuningdek, sovetlar davrida oila munosabatlarida keltiriladigan ko'plab qonun va qoidalarning musulmon oilasidagi masalalarga mos kelishl yoki kelmasligi mavjud jarayonga zarar yetkazmas edi. Aynan shunday keng ko'lamdagi jarayon sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan narsa – bu erkak kishining o'z oilasi ustida qayg'urishi, ya'ni "boquvchi" funksiyasini ado etishligi bilan bog'liqdir. O'g'il bolalarga yoshligidan o'z oilasini ta'minlovchi shaxs sifatida tarbiya berib kelingan. Unga, ba'zan "og'zaki yashirin", ya'ni atrofdagi ayrim jamotachilik fikrini qo'zg'ashni ma'qul ko'radigan kishilarning ma'lumotlari va ba'zan qaysidir mavjud diniy adabiyotlar vositasida "musulmon dunyosida ko'p xotinlilikka ruxsat etiladi, agar uni har tomonlama

ta'minlay olsa, ya'ni har bir erkak kishi diniy va milliy marakalarni bajarishi kerakligi, imkon qadar hovli-joy qilishi, farzandlarni o'qitishi, uy-joy bilan bog'liq jihozlarni topishi" va shu kabi jumlar bilan kishi ongiga ta'sir o'tkaziladi. Aslida esa har qanday o'zbek xonadoni o'z farzandini hyech qachon ko'pxotinlilikka da'vat etmaydi. Bu jihat ularning urf-odat, turmush tarziga to'g'ri kelmasligini farzand tarbiyasida doimiy uqtirib keladilar. Shu sababli ahloqiy, huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzularga oid asarlarda "ko'pxotinlilik" to'g'risida O'rta Osiyo hududida yashagan, ayniqsa davrimizning tadqiqotchi olimlari hyech qachon da'vat etmaydilar. Shu sababli ham o'zbek erkaklari «ko'pxotinlilik" to'g'risida fikr-mulohaza birdirganlarida - "bu holatning musulmonchilikda e'tirof etilishi to'g'risida har qancha og'iz ko'pirtirib gapirmasinlar, ammo real hayotda bu jarayonni ko'p ham o'zlariga ep bilmaydilar. Tabiiyki, shu omil ham o'zbeklarning ijtimoiy-ruhiy xarakterini belgilaydigan muhim jihatlardan biri sanaladi.

Ammo erkaklar uchun ishlab chiqilgan va an'anaga aylantirilgan «bo'ynidagi funktsiya (vazifa)ni bajarish» uning ijtimoiy-ruhiy va ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etadi? Hamma vaqt ham erkak o'z zimmasiga yuklatilgan «funktsiya»ni ado eta oladimi? Agar u o'z zimmasiga yuklatilgan funktsiyani ado eta olmasa unga jamiyat, qolaversa qarindosh-urug'lar, yaqin do'stlar va ayniqsa turmush o'rtog'i qanday munosabat bildiradi? O'z funktsiyasini ado eta olmagan erkak taqdiri oxir-oqibatda qanday yakun topadi? Bu kabi savollar shodasi orqali biz qaysidir bir shaklda o'zbeklar turmush tarzidagi gender mavzusining bir jihatiga javob topsak ajab emas.

Ko'p holatlarda "erkak funktsiyasi" deyilganda G'arb dunyosi va G'arb ta'siri doirasida fikr yuritadgan odamlar biologik-fiziologik omilni tushunishlari tabiiy. Ammo o'zbek oilasi munosabatlarida tushuniladigan erkak funktsiyasi asosan turmush tashvishlari va moddiy imkoniyatlarni udum yoki an'ana sifatida olib qarovchi "erkak" sifatida gavdalanadi. Ammo ushbu funktsiya jamiyat hayotida hyech qachon oshkora e'tirof etilmaydi, yoki "kishining ichki "siri" sifatida qadrlanadi. Har bir erkak zimmasiga yuklatilgan holatlardan biri bu, qanday qilib bo'lsa ham "qo'shimcha daromad" qilish iste'dodiga ega ekanligi

bilan alohida ahamiyat aks etadi. Agar erkak kishi qaysidir holatda qo'shimcha daromad qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa – hech qanday ogohlantirishsiz jamiyat a'zolari tomonidan “noshudlikda” ayblanadi. Uning jamiyat ijtimoiy tizimida egallab turgan lavozimi va mavqeyidan unumli foydalana ololmasligi esa, bema'lol jamiyat a'zolari, xususan, uning qavmi-qarindoshlari, yaqin do'st-ulfatlari, qo'ni-qo'shnilar va hattoki xotini, ba'zida farzandlari tomonidan ham ayblash uchun to'liq asos vazifasini o'tay oladi. «Falonchi ham sizga o'xshagan odam, siz qilgan ishni qiladi, kasbi ham siznikiga o'xshash, ammo u haqiqiy erkak...».

Ko'rinib turganidek «erkak» funksiyasi yana moddiy imkoniyatlarga kelib taqaladi. Oila yoki maktab va universitet muhitidan kelib chiqib olingan tarbiya turlicha bo'lganligi uchun, hamma ham o'zida qo'shimcha daromad qilish layoqatini shakllantira olmaydi. Buning ustiga zamon o'zgarishi va bozor iqtisodiyoti jarayonida odamlarda tabiiy ehtiyojlarning oshib ketishi kishidagi mavjud imkoniyatni to'liq namoyon qilishga imkon bermaydi.

Ўзбеклар турмуш тарзида ёшларнинг жамият ҳаётида эрта никоҳ қуриш асосида турмуш фаолиятига олиб кириш ҳам мазкур масаланинг асосий муаммоларидан бири саналади. Оила қурилгач, эркак олдида нафақат ўз оиласини таъминлаши, балки «ўз бўйнидаги қарзни о'зиш» масаласи ҳам ётади. Яъни энди у ўзини тарбиялаган, вояга етказган ва тўй қилиб уни оилали қилган ота-онасини ҳам ҳолидан хабар олиб туриши “ҳам қарз, ҳам фарз” ҳисобланади. Шунингдек, ўз авлодидаги бошқа ака-укалар тўй-ҳашамларида оиланинг бошқа аъзолари билан баробар иштирок этиши ва унга қилинган сарпо-суруқлардаги қарзни ошиғи билан қайтариши лозим ёки янги турмуш қураётганларни қарз қилиши керак бўлади. Аввал фақат ўз қавму қариндошлари доирасида олди-берди ишларида қатнашган бўлса, энди турмуш ўртоғи (эр ёки хотин) томонидаги қариндош-уруғлари билан ҳам фаол муносабатга киришиши лозим бўлади. Бу ҳам қарз ҳисобланади. Ундан ташқари турли хил миллий ва маҳаллий характерга эга бўлган тадбирлар ҳам борки, унда иштирок этмалик жамият томонидан қаттиқ қораланади.

Яна муҳим жиҳат, бу савоб учун қилинадиган тадбирлар ва отабободан қолиб келаётган тадбирлар меросини амалга ошириш. Булар учун сарфланадиган барча сарф-харажатларни эркак ўз зиммасига олиш керак. Негаки эркак топиб келади, аёл рўзғор ишлари билан банд. Бунинг устига, болалар тарбияси, супур-сидир ишлари ва ҳар хил майда-чуйдалар.

Энди масаланинг муҳим томонига эътиборимизни қаратамиз. Ҳар қандай киши қайси корхона, ташкилот, идора ёки фирмада ишламасин биз юқорида санаб ўтган урф-одат ва анъаналар талабини тўлиқ уддалай олиш имкониятига эга эмас. Баъзан бир нечта давлат муассасида ишлаб ҳам киши ўзига «юклатилган» талабларни бажара олмаслиги мумкин. Ўз имкониятлари чегараланган эркак доимий таваккалчилик ичида юради. Жамиятда белгиланган қонун ва меъёрлардан четга чиқишга мажбур бўлади (девиант шахс). Бунинг ҳаммаси хавfli таваккалчилик эканлигини у жуда ҳам яхши хис қилади. Аммо “анъанавий эркак функцияси” уни шу йўлга мажбуран тортади. У сира ҳам ўзига “ношуд” деган тамғани ёпиштирилишини истамайди. Уни олмаслик учун кўп ҳаракат қилиш керак бўлади, жуда ҳам кўп ҳаракат... Негаки, уни маълум бир вақт ўтиб ўз фарзандлари ҳам айбдор қилиши мумкин, яъни ношудликда айблаш. Хусусан, фарзандни бошқаларга нисбатан ёмонроқ яшаши, ўқишга кира олмаслиги ёки яхши ишга жойлаша олмаслик, ўз истеъдоди талабига жавоб берадиган мавқега эриша олмаслик, хуллас барчаси учун “кимдир” айбдор бўлиши керак. Табиийки, бу ўз зиммасидаги функцияни бажара олмаган киши бўлиб қолади.

Бирок, давр ўзгарди, одамлар бозор иқтисодиёти муносабатларини англай бошладилар. Эҳтиёжлар ва истеъмол қилиш даражасининг кескин ошиб кетиши, ўзбек жамияти аъзоларининг ҳам менталитети, ҳамда онгида муқим қотиб қолган стереотипларни қайсидир даражада ўзгаришига олиб келади. Бу биринчи навбатда жамият, хусусан, ўзбек жамиятида хотин-қизларнинг фаоллашуви билан намоён бўлди. Анъанавий турмуш тарзи ҳамма даврларда бўлгани каби янгиликка нисбатан қанчалик қаттиқ туриб

курашишга ҳаракат қилмасин, барибир илғор ахборот ва турли замонавий технологияларнинг таъсир кучига бардош бера олмайди. Афсуски, буни ўта мутаассиб анъанавий кишилардан ташқари, баъзан ўзларини давримизнинг илғор кишилари деб ҳисобловчи зиёли қатлам вакиллари ҳам тушунишни истамайдилар. Оқибатда ўзлари қаттиқ туриб ҳимоя қилаётган ғоялари жуда ҳам қисқа фурсат, яъни 3-4 йил ичида асоссиз бўлиб чиққанидан кейин кўпинча изтироб ичида қолиб кетмоқдалар. Лекин, замонавий жамиятнинг унчалик катта бўлмаган макон ичида тубдан ўзгариш хусусиятига эга эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, ҳар қандай зиёли тадқиқотчини “айбдор” деб ҳисоблашга ўзини ҳурмат қилган кишининг ҳаққи йўқ. Чунки, замонавий фан, ҳоҳ у табиий бўлсин, ёки ижтимоий-гуманитар мисли кўрилмаган суръатда таракқий этмоқда. Биз томонимиздан маъро’за сифатида тақлиф этилаётган «гендер» мавзуси бундан ўн йиллар олдин анъанавий жамиятларда кўпчиликни деярли қизиқтирмасди, на фақат қизиқтириш, ҳаттоки, бизнинг жамиятимизда уни тадбиқ ҳам этиб бўлмайди, - дегувчилар истаганча топилар эди. Бу масаланинг бир томони, унинг иккинчи томони борки, у ҳам бўлса «гендер» бу фақат аёллар муаммосини талқин этувчи йўналиш сифатида қараб келинар ва Ғарб жамиятларига хос бўлган “феминизм” ҳаракати билан чалкаштирилиб юбориларди. Аслида «гендер» – бу “жинслар тенглиги” масаласини таҳлил этувчи янги соҳадир. Шундай қилиб, биз маъро’замизнинг биринчи қисмида ўзбеклар жамиятида мавжуд бўлган, аммо кўпинча яширин туйғу ҳисобланган “эркак функцияси» тўғрисида гапирган бўлсак, энди ўзбек жамиятида “аёл” ёки хотин-қизлар мавзуси хусусида ҳам айрим мулоҳазаларимизни бермоқчимиз.

Ўзбекистондаги янги сиёсий тизимда шахс ва давлатнинг ўзаро муносабатларига устиворлик берилиб, улар бир-бири билан ҳуқуқ ва мажбуриятлар воситасида чамбарчас боғлиқ. Ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий муносабатларни мутаносиблаштиришнинг асосий механизми – бу, демократия, Ўзбекистон худудида истикомат қилаётган барча фуқаро ва аҳолининг ҳуқуқларини кафолатлаштиришга қаратилгандир. Ўзбекистонда

инсон ҳуқуқлари жамиятни демократлаштириш муаммолари илмий зеҳният, халқнинг тарихан таркиб топган анъаналари, урф-одатлари, маънавий кадриятларини инобатга олган ҳолда ҳал этилмоқда. Мамлакат фуқаролик-ҳуқуқий давлат қуриш йўлидан борар экан, бунда биринчи навбатда инсон манфаатлари, жамият ва шахс эҳтиёжларига хизмат қилиш бош масала бўлиб қолишига асосий эътиборни қаратмоқда.

Жинс эркеклар ва аёллар ўртасидаги универсал биологик бўлиб, анатомик ва физиологик моҳиятни, индивиднинг биологик жинсга - эркек ёки аёл жинсига мансублигини аниқлаш учун асос бўладиган биологик белгилар бирлигидир. Эркеклар ва аёллар ролларидаги жиддий бўлмаган фарқлар уларнинг биологик хусусиятларига тааллуқлидир.

Бироқ, эркеклар ва аёллар ўртасидаги биологик фарқлардан ташқари ўз табиатиغا ккра биологик бўлмаган сабабларга асосланувчи кўплаб фарқлар бор. Яъни, ижтимоий роллар, фаолият шакллариининг бўлиниши, хатти-ҳаракат ва индивидларнинг психологик характеристикаларида фарқлар мавжуд.

Таъкидланганидек, эркеклар ва аёллар ўртасидаги биологик, табиий фарқлар билан эркеклар ва аёлларнинг хатти - ҳаракатини, ижтимоий ва маданий характеристикаларни аниқроқ фарқлаш учун гендер атамаси қабул қилинган . Гендер тушунчасининг киритилиши энг умумий маънода икки тушунча - биологик ва ижтимоий жинс тушунчаларини фарқлашга ёрдам беради. Гендер (инглизча гендер - жинс) жинс тушунчасини физиологик воқелик устқурмаси бўлган ижтимоий конструкция сифатида белгилайди.

Гендернинг ижтимоий ташкил топганлигини антропологлар тадқиқотлари ҳам исботлайди. Улар ўзлари ўрганган жамиятларда ота ва она роллари, ижтимоий иерархияда эркеклар ва аёллар мавқеи қай тарзда белгиланганлигини ко'затган. Анъанавий равишда аёлларга хос деб ҳисобланган пассивлик, меҳрибонлик, болаларга муҳаббат ва назокат бир

уруғда эркак мижозига хос хусусиятлар деб белгиланса, айна пайтда бошқа уруғда улар аксарият аёллар ва эркаклар томонидаи қабул қилинмас эди.

Кейинги пайтларда кўплаб тадқиқотлар шуни кўрсатдики, анъанавий эркакларга хос ва аёлларга хос деб ҳисобланган тасаввурлар ҳатто бир жинс ривож тарихи даврда ўзгариши мумкин. Бундай тадқиқотлар биологик жинсга мансублик ҳаракатларининг анъанавий жиҳатларини соддалаштирилган тарзда тушунтирувчи кўп йиллик шубҳа остига олди. Шахснинг эркакларга ёки аёлларга хос деб ҳисобланган хусусиятлари бугунги кунгача жамият томонидан у ёки бу жинсга нисбат берилдиган кийим, одатлар, бош кийим каби жинсга кам даражада тааллуқли.

Шуниси муҳимки, биологик ва ижтимоий хусусиятлардан ташқари гендерга моддий хусусиятлар ҳам таъсир кўрсатди. Энг кенг маънода маданий - инсоният томонидан дунё ҳақидаги билимларни англаш ва тартибга солиш давомида вужудга келган нарсалар. О.Воронинани фикрича, эркакларга хослик ва аёлларга хослик қуйидаги рамзий қаторлар элементлари сифатида мавжуд бўлади:

эркакларга хослик - рационал - маънавий - илоҳий - .. - аёлларга хослик- ҳиссийга оид - баданга хос - гуноҳли -... - табиий. Жинснинг биологик хусусиятидан фарқи улароқ ижтимоий ва маданий рамзий хусусиятларда "эркакларга хос" деб ҳисобланадиган ёки унга ўхшатиладиган барча тушунчаларда ижобий, ахамиятли ва устувор деб белгиланган мужассамлашган бўлади. "Аёлларга хос" деб ҳисобланган хусусиятлар эса салбий, иккиламчи ва буйсунувчан деб қарайди.

Кундалик ҳаётимизда жинс билан боғланмаган кўплаб тушунчалар "эркакларга хос" ёки "аёлларга хос" деб ҳисобланади. Яъни ўзига хос "жинсий", гендер хусусиятга эга бўлади. "Эркакларга хос" ёки "аёлларга хос" тушунчаларни аниқ фарқлаш учун "феминлик" (аёллик) ва "маскулилик" тушунчалари қабул қилинган.

Гендер фанида гендер фарқларнинг ташкил топиш жараёни одатда ижтимоийлаштириш жараёни билан боғланади. Ижтимоийлаштириш (социализация - латинча ижтимоий) бу индивид томонидан жамиятнинг тўлақонли аъзоси сифатида фаолият юритиш имконини берувчи билим, меъёр ва қадриятларни ўзлаштириш жараёнидир. Ижтимоийлаштириш ўз ичига мақсадли таъсирнинг ижтимоий назорат қилинувчи жараёнларини камраб олади. Масалан, тарбия, ёки униинг шаклланишига таъсир қилувчи табиий жараёнлар. Ижтимоийлаштиришнинг асосий институтлари ва агентлари сирасига оила, мактаб, тенгдошлар гуруҳи, атрофдагилар, шу жумладан қўшнилар, таниш -билишлар, дўстлар ота-оналар ва ҳоказолар ва айни пайтда оммавий ахборот воситалари киради. Умуман олганда бу тегишли маданий -меъёрий андазаларни ўзлаштириш, қабул қилиш ва ифодалаш жараёни содир бўладиган муҳитдир. Хусусан, жинсий - ролли ёки бошқача айтганда, Гендер ижтимоийлаштириш жараёнида жамиятда қабул қилинган маданий меъёрларга мувофиқ равишда эркак ёки аёл Гендер ўхшашликнинг шаклланиши содир бўлади Ижтимоийлаштиришнинг турли жиҳатлари психология, ижтимоий психология, социология, тарих ва этнография, педагогика фанлари томонидан ўрганилади.

Гендер ўхшашлик - муайян маданиятда амал қилувчи эркакларга хослик ва аёлларга хослик билан о'зининг бог'лиқлигини англашдир. О'зини эркак ёки аёл сифатида идентификациялаш - бу ушбу жамият томонидан уларнинг биологик жинсидан келиб чиққан ҳолда белгиланган психологик сифатлар ва ҳаракатлар моделини қабул қилиш демакдир.

Ижтимоий психология нуқтаи назаридан индивидлар Гендер кутишларни оқлашга интилишининг асосини ташкил этувчи 2 та сабаб бор,

булар - меъёрий ва ахборот тайзиги. Меъёрий тайзигнинг моҳияти шундаки, инсон ижтимоий ёки гуруҳий кутишларга мослашиши ва шу орқали жамият ундан юз о'гирмаслигига эришиши лозим. Баъзан - жамият

анъанавий тарзда катъийлашиб қолган Гендер ролларга буйсунишдан бош тортганлиги учун қаттиқ жазолаши мумкин.

Бунга ко'плаб мисоллар бор: О'рта Осиёда хотин -қизлар ҳаракати ва ривожланиши тарихидаги Хужум ҳаракатидан ко'зланган мақсад аёлларнинг паранжида юришдан воз кечиши, уларнинг ижтимоий ҳаётда билим олишда кенг иштирок этишга интилишига эришиш эди. Бу жараён шафқатсиз кураш билан давом этган ва натижада аёлларнинг оддий инсонии ҳуқуқлари ва танлаш эркинлигини чекловчи о'рта асрлар талабларидан бош тортгани учун ко'плаб аёлларнинг қони то'килган. Эронда Оятулло Хумайний давлат раҳбари бўлган даврда, 1979 йилнинг уртасидан 80 - йилларгача кийим ва хатти - ҳаракат тартибларига риоя қилмаган 20 минг аёл улим жазосига ҳукм қилинган . Шахсга меъёрий тайзик утказиш жараёни, анъанавий ролларга риоя қилишга мажбурлаш оддий демократик меъёрлар ва ривожланишда жинодар тенглигини тан олиш мавжуд бўлмаган жамиятларда ко'затилади.

Гендер роллар - бу Гендер атрофидаги роллардан келиб чиқадиган ижтимоий кутишлар, ва айна пайтда нутқ, услуб, кийим ва хатти ҳаракатлардир. Эркаклар ва аёллар роялари бир - бирига зид деб ҳисобланади, ва айрим жамиятларда ролли хатти - ҳаракатлар кутбланишган бўлиши мумкин: пассивлик - аёллар роли, фаоллик - эркаклар роли. Гендер роллар билан боғлиқ бўлган кўрсатмалар айниқса меҳнатнинг эркаклар ва аёллар меҳнатига бўлинишида яққол намоён бўлади.

Ахборот тайзиқи, ўз навбатида индивид шахсига таъсир кўрсатади, инсон о'зи ва дунё ҳақидаги билимларни кенгайтириб, муайян ижтимоий масалаларга қандай ёндашиш кераклигини англашга интилар экан, кўпинча ўз тажрибасига эмас, атрофдагилардан олаётган ахборотга таянади. Биринчи навбатда, бу Гендер ролларга тегишлидир. Эркаклар ва аёллар турли ролларни бажарувчи муҳит, шунингдек, оммавий ахборот воситалари эркаклар ва аёллар ўртасидаги фарқнинг қанчалик катталигини таъкидлаб келишади. Бундай фарқлар "табiiй" хусусиятга эга эканлиги, ўзгармаслиги,

буларнинг барчаси ҳақиқат эканлиги тўғрисидаги хулоса зўрлаб уқтирилади ва одамлар ушбу кўрсатмалар ва кутишларга риоя этади. Ривожланиш психологияси соҳасидаги мутахассислар "дифференциал ижтимоийлашув" атамасидан Гендер ролларини ўзлаштириш содир бўладиган жараёни белгилаш мақсадида фойдаланишади.

Дифференциал ижтимоийлашув жараёни кўпинча бола туғилишидан аввал вужудга келади. Ўғил ёки киз туғилишини билиш ота -оналар ва аτροφдагилар ҳаракатига таъсир кўрсатади, шунга кўра болага исм, кийим ва уйинчоқлар танланади. Бола тарбиясининг ҳар бир босқичида, кейинчалик бутун умри давомида "эркакларга хос" ва "аёлларга хос" ҳаракатлар меъёрлари ва стереотиплар мустаҳкамланади. Уч ёшга келиб болалар ишонч билан ўзларини эркак ёки аёл жинсига мансуб деб ҳисоблайди ва бу Гендер идентификацияга мос келади.

Шуни қайд этиш зарурки, мавжуд маданий воқеликни англаш, ўзлаштириш ва тиклаш жараёни Гендер ижтимоийлашув даврида аввало тақлид қилиш даражасида содир бўлади. О'зини англаш ва аτροφдаги воқеликни тушуниш давомида индивиднинг ижтимоий ҳаракати кутилаётган ижтимоий меъёрларга мос келиши мумкин (ҳатто унинг дунёқарашига зид бўлган тақдирда ҳам). Ички қаршиликка қарамай, анъанавий Гендер ролларга буйсунишга олиб келадиган ҳаракатнинг бундай турини ижтимоий психологлар ён берувчи деб ҳисоблайди. Шунингдек, инсон жамиятда қарор топган Гендер ролларга ва тегишли меъёрлар ва андозаларга тўлиқ қўшиладиган ҳаракат тури ҳам мавжуд. У маъқуллаш ёки интериоризация деб аталади. ҳаракатнинг учинчи тури - бу идентификация, бунда эркакларга ёки аёлларга ўхшаш истаги туфайли ролларни оддий такрорлаш содир бўлади.

Индивиднинг Гендер ролли ижтимоийлашувига таъсир кўрсатадиган қатор омиллар мавжуд. "Эркакларга хос" ва "аёлларга хос" ўхшашликлар мустаҳкамланишига хизмат қилувчи махсус воситалар сирасига таълим,

жамоатчилик фикри, адабиёт ва санъат асарлари, реклама, оммавий ахборот воситалари, телевидение ва ҳоказолар киреди. Барча ушбу воситалар эркаклар ва аёллар роллари тўғрисидаги анъанавий тасаввурларни тиклашга йуналтирилган булиб, бу орқали ушбу меъёрлар қўллаб - қувватланади.

Эркаклар ва аёллар роллари тўғрисидаги анъанавий қарашлар асосида уларнинг ижтимоий ҳаракати биологик фарқ асосланганлиги тўғрисидаги фикрдан келиб чиқади. XX асрнинг бошида машхур психоаналитик Зигмунд Фрейд "Анатомия - бу тадбир" деб айтган эди. УҒИЛ болалар тарбияси анъанавий равишда тажовво'зкор хусусиятга эга, чунки эркак зёлга нисбатан кучли, шижоатли ва катъиятли булиши керак. Эркакларга тарих ва маданият бунёдкори булиш роли берилган. қизларга кичиклигиданок; булажак она роли сингдирилади, у шахсий кизикишларга эга булмаслиги, о'з хаётини оиласига - эри ва болаларига баришлаши керак. Қизлар жисмоний жихддан ҳам, психологик жиҳатдан ҳам химоясиз килиб тарбияланади. Бу эса о'з устидан зуравонликни қабул қилишга қулай асос яратади. Аёлларга уй ишлари ва болалар тарбияси ишониб топширилган уй бекалари роли ажратилган. Эркаклар ва аёллар роли бундай биологик йуналтирилган ёндашув бугунги кунда гендерни ижтимоий шакллантириш тарафдорлари томонидан танкид қилинмоқда.

Шуни айтиш жоизки, биологик детерменизм ёндашув сифатида нафақат Гендер тенгсизлиги мавжудлигини табиатан берилган деб олайди, балки турли ижтимоий гурулар уртасидаги асрлар давомида шаклланган тенгсизликни ҳам ёллайди. Хусусан, турли ж:амиятларда тери ранги ёки келиб чиқиш инсоннинг муайян ижтимоий гуруҳга мансублигини -- подшоҳ, муайян урут вакили эканлигини белгилар эди. Иерархик табақаланиш ижтимоий стратификация жараёнида содир булар эди. Бирок ҳар қандай жамиятга хос бўлган стратификациянинг универсал модели Гендер стратификациясидир, бунда иерархия жинсий мансубликка ко'ра белгиланар ва бунда доимо эркак устун ҳисобланар эди.

Тарих шуни курсатдики, хакикий хокимият доимо эркаклар кулида бўлган, патриархал даврининг энг бошидан улар аёлларни карам ахволда санаш фойдали деб хисоблаган, уларнинг Аёлга қарши қаратилган ва шу тарифа у О'зга деб белгиланган эди... Аёл булиб тутиЗймайдилар, аёл булиб шаклланадилар".

Гендерни шакллантириш назариясининг асосий тушунчалари. Биологик детерменизм жинслар уртасидаги тушунишга ёндашув сифатида гендерни ижтимоий шакллантириш тарафдорлари томонидан жидкий танкид қилинади. Уларнинг фикрича, урил ва киз болаларда ижтимоийлаштириш жараёнида турли малака ва рухий фазилатларни тарбиялаш, эркаклар ва аёллар уртасидаги меҳнат тақсимоти жамиятда

Қабул қилинган маданий меъёрлар, роллар ва стереотиплар Гендер фарқни шакллантириш жараёнини ифодалайди.

Биологик детерменизм жамиятда жинслараро вужудга келадиган муносабатларни биологик жинсга мансубликнинг хосиласи сифатида куриб чиқилади. Шу тарзда биологик жиҳатдан фарқанадиган жинслараро ва умуман ижтимоий гуруҳлараро муносабатларнинг тарихдан ташқарилиги ва эссенциализми (мохиятан о'згармаслиги) мустаҳкамланади. Демак, хукмрон - хукмронлигича, қора танли - қуллигича, оқ танли - президентликка даъвогар булиб қолаверипш керак. Инсон табиати бу нуқтаи назардан икки ёклама булиб - унга қура дунёдаги барча нарса "аёлларга хос" ва "эркакларга хос" нарсаларга бўлинади.

Гендер аёллар ва эркакларга таъсир курсатувчи барча ижтимоий жараёнларда ташкил топади ва қайта тикланади. Гендернинг ижтимоий ташкил топиши назариясида учта асосий тушунча фарқланади: жинс, жинсий мансублик ва Гендер.

1970 йиллар бошигача жинс хусусида бу анатомик, физиологик хусусият, индивидга берилган мақом, деган аниқ тасаввур мавжуд бўлган.

Гендер эса феминист тадриқотчилар томонидан "психологик, маданий ва ижтимоий воситалар билан эришиладиган маком" сифатида кўриб чиқилади". Бирок шахснинг Гендер идентификацияси 5 ёшларга келиб шаклланиши, кейинчалик эса жамланадиган тажриба мустаҳкамланиб бориши Гендер эришиш мумкин бўлган майсом эканлиги тўғрисидаги қарашни шубҳа остига олади.

Жинсни фақат туғма хусусиятларга эга тушунча сифатида қабул қилишга қарши қўйилувчи ҳолат сифатида гомосексуализм, транссексуализм, шунингдек, энг янги биологик кашфиётларнинг пайдо бўлиши ва англаниши вужудга келди.

Худди шу каби қайта англаш жараёнлари ижтимоий ва гуманитар фанларда ҳам содир бўлмоқда. Яқин пайтларгача жамиятга ёт деб қараб келинган ҳодисалар замонавий жамиятда турли - туман ижтимоий ҳаракатлар ифодаси сифатида қабул қилинади.

Хулоса шундаки, эркеклар ва аёлларнинг жинсий етуклик пайтида ва репродуктив соҳада намоён бўладиган хромосомалари тўпламида аниқланган фарқ ҳар эркеклар ва аёллар ижтимоий нуқтаи назарларидаги тафовутларни оқловчи кучли далил бўлиши мумкин.

I.2. GENDER TENGLIGI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA

Хотин - қизлар ҳаракати даставвал Шимолий Америкада, 1775-1783 йиллар давомида мустақиллик учун кураш шароитида ва Францияда 1789-1794 -йиллардаги инқилоб даврида вужудга келди. Дастлабки феминистлар хотин - қизларнинг эзилиши ҳамда уларнинг эркакларга қарамлиги сабабларини излар экан, уларни ҳам ҳуқуқий ва ижтимоий жабҳаларда кўради. Уларнинг қарашлари феминистик дунёқараш, кейинчалик феминистик назария шаклини олди.

Бирок, феминистларнинг хотин - қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва кенгайтириш борасидаги чиқишлари жамият учун қутилмаган бўлиб, ҳаммада ва ҳатто аёллар орасида ҳам ижобий қабул қилинмаган. Феминизмнинг ривожига 1792 йилда Германияда чоп этилган Теодор фон Гиппелнинг "Хотин -қизларнинг фуқаролик ҳолатларини яхшилаш тўғрисида"ги асари, 1792 йилда Англияда чоп этилган "Хотин -қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш" асари кучли таъсир кўрсатган. Жумладан, Улжтоункрафт о'з китобида шундай деб ёзади:"Аёллар маданиятнинг барча камчиликлари ва нуқсонларини о'зига қабул қилиб, фойдали неъматларини ён бердилар". Унинг фикрича, адолатли жамиятда жинсига кўра камситиш бўлмаслиги керак ва у йўқ қилиниши лозим. Унинг концепцияси ўз даврининг либерал қарашларига асосланган бўлиб, бунда тенглик қонун олдидаги тенглик сифатида тушунилар эди. Суд тизим тулиқ хотин - қизларнинг қарамлигини қўллаб - қувватлаган бир даврда аёллар ва эркакларнинг қонун олдидаги тенглиги талаби о'з даври учун илг'ор ҳисобланган. Бундан урта асосий талаб келиб чиққан:

биринчиси: хотин - қизлар иқтисодий мустақилликка эга бўлиши керак;

иккинчиси - улар эркаклар билан тенг юридик ва фуқаролик ҳуқуқларига эга бўлиши керак;

учинчидан - таълим ва ижтимоийлаштириш амалиётида тегишли зарурий о'згаришлар амалга оширилиши керак.

1789 йилдаги француз инқилоби феминистик кайфиятларнинг жонланишига, хотин - қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи дастлабки гуруҳларнинг пайдо бўлишига кучли таъсир ко'рсатди. Айнан шу уилларда феминизм ижтимоий ҳаракат шаклида қарор топди. Парижда ва бошқа феминистлар - барча хотин - қизларни эркаклар зулмидан ва устуворлигидан озод қилиш ҳаракатлари иштирокчилари шаҳарларда аёллар клублари ташкил этилиб, уларда озодлик ва тенглик идеаллари таъсирида сиёсий дастурлар ишлаб чиқилган. Бундай дастурларда таълим олиш, меҳнат қилиш, жамият ишларида иштирок этишга тенг ҳуқуқлилиқ талаблари илгари сурилган. Шундай гуруҳларга раҳбарлик қилувчи Олимпия де Гуж о'зининг "Хотин - қизлар ва фуқаро аёллар ҳуқуқлари декларацияси"ни яратган, чунки эркакларнинг "Инсон ва фуқаро ҳуқуқлари декларацияси" аёлларни фуқаро деб белгиламаган ва уларга ҳеч қандай ҳуқуқ бермаган. Унинг декларациясида кайд этилишича, озодлик ва тенг фуқаролик ҳуқуқлари фақат эркакларнинг о'зигагина тегишли бўлиши мумкин эмас, жамиятнинг ярми унинг иккинчи ярми-эркаклар фойдаланадиган имтиёзлардан маҳрум бў'lsa, амалда тенгликка эришиш мушкуллигини қайд этиб, аёлларга барча фуқаролик ва шу жумладан сайлов ҳуқуқларини шунингдек, давлат лавозимларини эгалаш имкониятлари берилишини талаб этади. О'зининг тенглик ғоялари учун 1793 йилда Олимпия де Гуж қатл эттирилган, хотин - қизлар клублари эса тарқатиб юборилган. Шу тарзда инқилоб аёлларнинг ҳуқуқларини тан олмаган, уларга эркаклар билан тенг ҳуқуқ бермаган, уларнинг оғ'ир сиёсий аҳволини о'згартиришсиз қолдирган, эмансипациянинг самарали стратегияларини ишлаб чиқмаган.

1795 йилда хотин - қизларга сиёсий йиғилишларда қатнашиш, жамоатчилик жойларида гуруҳ бо'либ йиғилишни тақиқловчи декрет эълон қилинган. Бундай тақиқловчи сиёсатнинг давоми Наполеоннинг "Фуқарлик кодекси"да (1804) хотин - қизларнинг сиёсий ҳуқуқлардан маҳрум этилиши бо'лди. У эрининг қарамог'ида бо'лиши лозим эди.

Бирок эркаклар ва аёллар тенглиги учун – г'ояси учун кураш барҳам топмади. Г'арбий Европа ва Шимолий Америкада феминистик гуруҳлар пайдо бо'лди, феминистик ҳаракатлар ташкил топди ва уларнинг талаблари тобора ко'проқ аёллар томонидан қўллаб - қувватлана бошланди.

XIX асрда феминистик талаблар АҚШда кенг тарқала бошланган, у ерда ижтимоий ислоҳотлар содир бо'либ, улар аёлларни о'зининг жамиятдаги мақоми ҳақида о'йлашга мажбур қилган. Мавжуд анъаналар ва урф - одатлар туфайли қизлар вақтли турмушга чиққан ва шу туфайли эрга тегмаган аёлларга нисбатан ко'п усунликлардан бебаҳра бўлган. Эрга тегмаган аёллар айрим фуқаролик ҳуқуқларига, жумладан, иқтисодий ҳуқуқларга эга бўлган, бироқ эрга теккач, улардан маҳрум бўлган. Хотин-қизлар таълими имкониятлари о'қиш, ёзиш, мусиқа, рақслар билан шуг'улланиш ва кашта тикиш билан чегараланган. 1820 йилда Америкада шотландиялик нотiq ва журналист аёл Фрэнсис Райт нутқ, сўзлаган. Бу пайтларда Америкада аёлларга жамоатчилик жойларида сўзлаш та'қиқланган эди. Шу сабабли Фрэнсис Райтнинг куп минг сонли аудитория олдида хотин қизларнинг туг'ишини назорат қилиш, ажралишга доир ҳуқуқлари америкалик аёлларга кучли таъсир ко'рсатди. Америкалик феминистлар қулликни бекор қилиш борасидаги шафқатсиз курашда фаол иштирок этди. 1830 - 1850 йилларда улар қулликни бекор қилиш буйича ҳаракат гуруҳлари ва ташкилотларида қатнашиб, ҳужжатларга минглаб аёллар имзо қо'йган. Бирок, сиёсий ҳуқуқлари бо'лмагани туфайли аёллар қулликни бекор қилиш то'рисида қонун қабул қилиш буйича ҳукуматга сиёсий тазйiq о'тказа олмаган.

1840 йилда хотин - қизлар ҳуқуқлари учун курашнинг аёллар гуруҳи ташкил этилди. Унга Элизабет Кэди Стэнтон раҳбарлик қилди. Шу йили Лондонда қулликка қарши кураш бо'йича халқаро конференция уюштирилди ва Элизабет Стэнтон унда нутқ со'злаш ҳамда мазкур масаланинг муҳокамасида қатнашш ниятида эди. Бироқ, унга рад жавоб беришди. Шунда конференциянинг бошқа иштирокчи аёллари норозилик билдириб, Конвент залидан чиқиб кетди. Конференцияга келиб, кейин уни ташлаб кетган аёллар орасида қулликка қарши кураш ҳаракатининг фаол иштирокчиси Лукреция Мотт бор эди. Бу ерда шу аёл ва Кэди Стэнтон хотин - қизларнинг ижтимоий, фуқаролик ва диний ҳуқуқлари учун курашнинг то'ғ'рисида келишиб олишди. Уларнинг бу йуналишдаги фаолияти яхши самара келтирди. 1848 йилда Сенека Фолз шаҳрида (Нью-Йорк штати) жаҳон тарихида биринчи марта Хотин: -қизлар ҳуқуқлари буйича Конвент чақирилди ва унда жинсига ко'ра тенгсизлик масаласи кўриб чиқилди. Элизабет Кэди Стэнтон Американинг "Мустақиллик декларацияси"га таянгани холда "Хис-туйғулар декларацияси"ни тайёрлади ва уни йиғилганларга ҳавола этди. Декларацияда таъкидланадики, "барча эркеклар ва аёллар тенг яратилган", шунингдек, хотин - қизларга нисбатан амалга ошириладиган 18 та адолатсизлик санаб ўтилади: оғир характерли эри билан ажрашган ёки ундан кетиб қолган аёлларнинг болаларга бўлган ҳуқуқининг йуқолиши; ажрашган аёлнинг ҳуқуқи фақат ўқитувчилик ёки ёзувчилик билан чекланиб қолиши; судда о'з эрига қарши кўрсатма бериш ҳуқуқининг йуқлиги; фабрикалардаги турмушга чиққан ишчи аёллар ойлигини эрига бериш мажбурияти; турмушга чиқиш пайтида аёлнинг бутун мол- мулкининг эрига ўтиши ва бошқа аёллар учун муҳим бўлган масалалар. Конвент иштирокчилари хотин - қизларнинг сайлов ҳуқуқи тўғ'рисидаги масалани ко'риб чиқди. Бироқ, йиғилганларнинг аксарияти шу масалага тайёр бўлмади, бунинг имкони йўқ деб ҳисоблашди. Фақат қора танлилар ҳуқуқининг нимоячиси, аблоционист Фредерик Дугласнинг хотин қизларнинг сайлов

хуқуқлари тўғрисидаги эҳтиросли нутқидан сўнг Конвент шу масала буйича қарор қабул қилди.

Конвентдан сўнг Сенека Фолзда хотин - қизларнинг сайлов ҳуқуқи то'ғ'г'исидаги масала жамоатчилик эътиборини о'зига тортди. Кэди Стэнтон машһур ёзувчига ва хотин - қизлар ҳуқуқлари ҳимоячисига айланди, одамларнинг ижтимоий дунёқараши о'згаришига ижобий таъсир кўрсатди. Сенека Фолздаги учрашув хотин - қизларнинг о'зларининг қарам аҳволи муаммосига муносабатини ойдинлаштирди, жамоатчилик эътиборини аёлларнинг сиёсий ва иқтисодий аҳволи ва мақомининг муһим жиһатларига қаратди ҳамда келгуси ўзгаришларга замин ҳозирлади. XIX асрнинг о'рталарида АҚШда хотин -қизлар ҳаракатининг энг таниқли намоёндалари орасида Сожунер Трас муһим о'рин тутган. У қулликка қарши ҳамда аёлларнинг сайлов ҳуқуқидан маһрум қилинишига қарши чиқар экан, уларни бир -бирига зич ботлайди. Бирок қора танли америкалик аёлларнинг хотин - қизлар ҳаракатида иштирок этиши оқ танлилар, эркаклар ва аёллар томонидан маъқулланмаган ва ҳатто қаршиликка учраган. Масалан, 1852 йилда Акрон шаҳрида (Огайо штати) булиб ўтган хотин -қизлар ҳаракати фаоллари съездида оқ танли аёллар Сожунер Траснинг нутқини шовкин - сурон билан бўлиб қо'йишга ҳаракат қилган. Бу кат'иятли аёл барча қаршиликларни енгиб о'тди ва унинг фаолияти хотин - қизларнинг ўз ҳуқуқлари учун курашида жиддий роль ўйнади. Бирок, бошқа қора танли феминист аёллар оқ, танли аёлларнинг бундай иркий ақидаларидан хафа бо'либ, аёллар ҳуқуқлари учун фаол курашдан четда чиқиб қолган.

Феминистик ғоялар ва концепциялар хотин -қизлар ҳуқуқларига нисбатан ижтимоий фикрни шакллантиришга таъсир кўрсатди. Бу борада Гарриет Тейлор Миллнинг ва унинг ҳамфигри ҳамда эри Жоан Стюарт Миллнинг хотин -қизлар эмансипациясига бағишланган эсселари туркуми муһим роль о'йнади. Жумладан, 1851 йилда чоп этилган "Аёлнинг қарамлиги" асари худди шундай аһамиятга эга бўлган. Унда иш ва

анъанавий конвенциялар аёлларга тазйиқ о'тказувчи ва танлаш эркинлигини бермайдиган хужжатлар сифатида талқин этилган. Ушбу асарларда таъкидланадики, аёллар эркаклар учун кафолатланадиган табиий ҳуқуқларга муносибдир. Аёлларнинг "табиий" ожизлиги бу билим етишмаслиги ва танлаш имконияти йўқлиги, эркакка қарамлиги ҳамда ижтимоийлаштиришдаги нуқсонлар оқибати. Улар бугунги кунда ҳам муҳим бўлган масаларни кўтариб чиқишди: аёлларнинг эркакларі хуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий қарамлиги амалиётини бекор қилиш; таълим олишда эркинликлар ва имкониятларни таъминлаш; аёлларнинг макomini яхшилашга олиб келадиган танлаш ва имкониятлар эркинлигини кафолатловчи қонунлар ва ижтимоий институтларни жорий этиш ва ҳоказо.

XIX асрнинг иккинчи ярмидан турли мамлакатлар хотин - қизларининг феминистик ҳаракатдаги иштироки ортди. Асосий талаб - аёлларга сайлов ҳуқуқини берилиши эди. Буюк Британияда хотин - қизларнинг сиёсий тенг ҳуқуқлилигига эришиш ҳаракати суфражизм деб аталди. Инглиз феминистлари туфайли ушбу атама феминизмдаги сиёсий йунлишнинг номи сифатида тарихга кирди. Айнан Англияда суфражизм Европа мамлакатларига нисбатан изоқ вақт давом этди.

Хотин - қизларнинг суфражистик ташкилотлари асосан парламентга хотин - қизларга сайлов ҳуқуқининг берилишини талаб қилувчи петицияларни тайёрлаш ва такдим этиш билан шутилланди. 1866 йилда Буюк Британияда 1500 нафар аёл парламентга хотин - қизларга сайлов ҳуқуқининг берилишини талаб қилувчи петицияни такдим этди. Бирок парламет уни эътиборсиз колдирди. Таникли файласуф ва либерализм мафкурачиси Жоан Стюарт Милль ҳаракатлари туфайли хотин - қизларга сайлов ҳуқуқи давлат миқёсида муҳокама килинди. 1867 йилда сайлов ислохоти тўғрисидаги билль муҳокамаси пайтида Жоан Стюарт Милль унга то'затиш киртишни таклиф этди. Унга кура хотин - қизлар автоматик тарзда овоз бериш ҳуқуқига эга булар эди. 1868 йилда хотин - қизларюадг таркок

суфражистик гурухлари ягона "Хотин - қизлар сайлов ҳуқуқи учун миллий жамият" ни ташкил этидти. 1879 йилда Англияда "Аёллар суфражистик журнали" чоп этила бошланди ва у мазкур ҳаракатнинг мақсади ва тактикасини белгилар эди. Асосий мақсад хотин-қизларга эркаклар билан тенг сайлов ҳуқуқининг берилишига эришишдан иборат эди.

Шу даврда ко'п мамлакатларда аёлларга о'з фаолиятига эга бо'лиш, банкдан кредит олиш, ҳуқуқ, теология, бизнес мактабларида ўқиш ва бошқа касблар рухсат этилмас эди. 1873 йилда АҚШ Олий Суди аёлларнинг адвокатлик амалиёти билан шуғилланишини қонунчилик йўли билан тақиқланишининг асосланганлигининг конституциявийлигини эълон қилди. "Табиий биологик фарқлар, - дейилади, ушбу қарорда, - аёлларнинг фуқаролик ҳаётида айрим касбларга мосланмаганлигини келтириб чиқаради. Уларнинг асосий фаолият соҳаси хо'жалик ишлар ва оналик. Эркак аёллар ва оналар, шу жумладан, булажак оналарнинг хомийси ва аёлларга хос бо'лмаган ишдан химояловчисидир". Қонунчилик томонидан белгиланган бундай камситувчи ҳолат хотин - қизлар ҳаракати етакчиларининг норозилигини келтириб чиқарди. Америкалик феминистлар олий таълим олиш ҳуқуқини сайлов ҳуқуқидек устуворликка эга, деб ҳисоблар эди.

1888 йилда америкалик феминистлар ташаббусига кўра тарихда биринчи халқаро хотин - қизлар ташкилоти - Халқаро хотин -қизлар кенгаши ташкил этилди. Кейинчалик 50 дан ортиқ мамлакатда миллий хотин -қизлар ташкилотлари пайдо булди ва улар 1893 йилда Халқаро кенгашга бирлашди. Шарқ мамлакатларида хотин - қизлар ҳаракати XIX асрнинг охирларида шакллана бошланди. Арабистонда биринчи феминист суриялик аёл Варда ал-Язичий бўлган. Бу даврда хотин -қизлар журналлари чоп этила бошланди: Мисрда - "ал-Фагат", "Фагат уш-Шаркий" ("Шарк кизи"), Сурияда - "Ал-Хуснат" ("Го'зал") шу жумладан. Туркияда хотин -қизлар ҳаракати аъзолари "Толейи нисван жамият" ташкилотини тизиб, махус хотин - қизлар

журналини чiqара бошлади. Бунда Холида хоним, Фотима, Олия, Нигор хоним ва бошкалар фаол иштирок этган.

Хиндистон, Хитой Индонезияда хотин - қизлар миллий озодлик ҳаракатларида кенг иштирок эта бошлади, таълим олиш ҳуқуқини талаб этди. Аёллар халқаро мунозараларни тинчлик йули билан ҳал қилишга йуналтирилган халқаро тadbирларни қатъият билан ва ошқора қўллаб - қувватлай бошлади. Бу айниқса, Гаагадаги 1899 ва 1907 йиллардаги тинчлик конференцияларига тайёргарлик даврида яққол намоён бо'лди. 1890 йилда 20 давлатдан келган 2 миллион нафардан зиёд аёл Гаага тинчлик конференцияси делегатларига мурожаатномага имзо чекди. Аёллар конференция ишида, со'нгра унинг қарорларини амалга оширишда фаол иштирок этди. Гаага конференцияларининг фаол иштирокчиси, кейинчалик Нобель тинчлик мукфотига сазовор бўлган аёллардан бири австриялик баронесса Берта фон Зутгаердир (1905).

XX асрнинг бошида куплаб мамлакатлардаги феминистик ҳаракат радикал босқичга утади. Хотин - қизларларнинг о'з ҳуқуқлари учун ко'п минг сонли юришлари ва намоёишлари бо'либ о'тади. 1910 йилда америкалик аёллар Элис Пейн ва Харриер Стантон Блатч тенг сайлов ҳуқуқини талаб қилиб, Нью -Йоркда ва бошқа шаҳарларда бир нечта юриш ва намоёишларни ташкил этди. Хотин -қизлар о'зларининг хаёти фақат излуксиз og'ир меҳнатдан иборат бо'лмаслигига интилар эди. 1912 йилда Массачутес штатининг Лоуренс шаҳрида иш ташлаган то'қимачилик фабрикалари ишчилари "бизга нон ҳам керак, атиргуллар ҳам керак" шиори остида намоёиш уюштиришди. Бундай шиор бугун ҳам о'з аҳамиятини йукотган эмас.

Европадаги хотин -қизлар ҳаракатидан фарқли равишда Россияда бирон -бир хотин -қизлар ташкилоти ўз олдига тенг ҳуқуқлиликка доир сиёсий масала қо'ймаган. Чунки монархия Россиясида аҳолининг барча қатламлари: аёллар ҳам эркаклар ҳам ҳуқуқсиз бўлган. Россиядаги XIX

асардаги хотин - қизлар томонидан илгарі сурилаётган г'ояга асосан эмансипацияси учун ҳаракат о'з олдига олий маълумот олиш, яхши ҳақ то'ланадиган ва малакали иш учун курашни масаласини қо'йди. 1870 йилда маълумот олиш учун аёлларнинг Европага чиқиб кетиши кучайди. Бу эса ҳукуматни хотин - қизлар ҳаракатининг Россия шаҳарлари университетларида хотин - қизлар олий курсларини очишга мажбур қилди. 1872 йилда Санкт - Петербургда аёллар врачлик курслари 1878 йилда - Олий хотин - қизлар курслари очилди. 1895 Петербургда ёпилган аёллар врачлик курслари урнига император фармони билан Хотин - қизлар тиббиёт институтга ташкил этилди. XX асарда иқтисодий ривожланиш эҳтиёжлари аёлларнинг касбий таълим олишининг кенгайтирилишига сабаб булди. Хотин - қизларнинг олий тижорат, қишлоқ хо'жалиги, педагогик, юридик, қурилиш, техник ва бошқа курслари ташкил этилиб, уларда асосан о'рта тоифаларга мансуб хотин - қизлар таълим олар эди.

Хотин - қизлар ҳаракатининг ёрқин саҳифаларидан бири аёлларнинг инқилобий ҳаракатдаги иштироки бо'лди. Хотин - қизлар барча йирик инқилобий ташкилотларга аъзо бо'либ, айримлари етакчиларга айланган.

Илк сиёсий ҳуқуқлар талаби 1905 йилда буржуа инқилоби даврида илгарі сурилган. Николай II конституция тизимини жорий этиш ва Давлат Думаси - халқ вакиллари органики жорий этиш то'ғ'рисида Олий манефест чиқаришга мажбур бўлган. Ушбу органга сайлов тўғ'рисидаги қонунда (1905 йил 11 декабрь) сайлаш ҳуқуқлари фақат эркакларга берилган. Шу пайтдан бошлаб, хотин - қизлар ташкилотлари эркаклар ва аёлларнинг фуқаролик тенг ҳуқуқлилиги, хотин - қизларга сайлаш ҳуқуқининг берилиши учун кураш бошлади. Аёллар номидан давлат ҳокимият органлари номига петициялар то'планди, йиг'илишлар, митинглар, намоёишлар о'тказилиб, уларда аёлларга мамлакат сиёсий ҳаётида иштирок этиши учун ҳуқуқ ва имкониятлар берилиши талаб қилинди.

Рус хотин - қизлари о'зaro хайрия жамиятининг 1 - Давлат Думасига мурожаатига 5 минг нафар аёл имзо чекди. Думада ушбу мурожат мухокама килинган, Хотин - қизларга сайлов ҳуқуқларини бериш тўғрисидаги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш буйича комиссия тизилди. Бирок, 1-Давлат Думаси ушбу масалани ко'риб чиқишга улгурмай, тарқатиб юборилди. Кейинги Думалар эса хотин - қизларнинг ко'п сонли мурожатларига қарамай, аёлларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги масалани ко'риб чикмади. 1917 йилдаги февраль буржуа инқилоби кун тартибига умумий сайлов ҳуқуқини илгари сурди. Хотин - қизлар ташкилотлари сиёсий ҳуқуқларни талаб қилиб, намоишлар уюштирди (энг катта намоишда 40 минг нафар аёл катнашиб, у 1917 йил 19 мартада Петербургда бо'либ о'тган). Шу фаолият натижасида Муваққат ҳукумат 1917 йил майда жинсига ко'ра чекловсиз умумий сайлов ҳуқуқи тўғрисида қонун қабул килди. Шу тариқа инқилобий ко'тарилиш то'лқинида Россия аёллари Европада биринчи бо'либ, эркаклар билан тенг сайлов ҳуқуқига эга бо'лди. Дунёда биринчи бо'либ аёлларга эркаклар билан тенг сайлов ҳуқуқларини берган мамлакат Янги Зеландия (1893) бо'лди. Ундан сунг Австралия (1902) ва Финландияда (1906) аёлларга шундай ҳуқуқ берилган. II жахон уруши бошлангунича, яна дунёнинг 25 мамлакати хотин - қизлари сайлов ҳуқуқларига эга бўлган, бу эса хотин - қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи либерал йуналишдаги феминистларнинг ко'п йиллик фаолияти натижаси эди.

Сайлов ҳуқуқлари қо'лга киритилган, Европа мамлакатларида хотин - қизлар ҳаракати таназзулга учради. Бу ҳол бир нечта сабаблар билан изоҳланади. Биринчидан, хотин - қизлар ҳаракатларининг асосий мақсади - овоз бериш ҳуқуқининг қо'лга киритилиши. 1919 йилда бундай ҳуқуқни Австрия, Германия, Нидерландия, Польша, Швеция, Люксембург, Чехословакия, 1920 йилда - АҚШ; 1922 йилда - Ирландия; 1928 йилда - Буюк Британия; 1931 йилда - Испания, Португалияда эришилди. Иккинчидан, феминистик ҳаракатлар фаолларининг бошқа ижтимоий ҳаракатларда иштирок этиши. Учинчидан, айрим феминистларнинг сайлов ҳуқуқлари

қо'лга киритилганидан со'нг ҳам аёлларнинг иқтисодий ва ижтимоий тенг бўлмаган ҳолатидан нафсаласи пир бўлиши. Ҳақиқатдан ҳам шунчалик кийинчилик билан қо'лга киритилган сиёсий ҳуқуқлар аксарият хотин - қизларнинг иқтисодий ва ижтимоий турмуш тарзини жиддий яхшиланишига, жамиятда Гендер тенглиги урнатилишига олиб келмади. Бирок, хотин - қизлар ҳаракати жинсига кура тенгсизликни йуқ қилиш зарурлигини англашда муҳим роль о'унади, аёллар ҳуқуқларини ҳимоя қилшц буйича бой тажриба то'плади. Аёлларнинг халқаро фаоллиги 1919 йилда Миллатлар Лигаси Уставида Миллатлар Лигасидаги ва унинг ташкилотларидаги барча лавозимларнинг аёллар учун ҳам эркаклар учун ҳам очиқлиги тўғрисидаги модда киритилишига сабаб бўлди. Бу муҳим ютуқ эди. Эндиликда аёллар халқаро ташкилотларда эркаклар билан баравар ишлаш, сиёсий мунозараларда иштирок этиш, миллий делегациялар таркибида иштирок этиш имконига эга бўлди. 1925 йилда Халқаро хотин - қизлар ташкилотларининг бирлашган доимий қо'митаси (1934 йилдан бошлаб - Халқаро хотин - қизлар ташкилотлари алоқалари қо'митаси) ташкил этилди. Бирок, 30 - йилларнинг бошида айрим Европа мамлакатларида ҳокимият тепасига фашистларнинг келиши билан хотин - қизлар ташкилоти тарқатиб юборилди. Вужудга келган демократик антифашист хотин - қизлар ташкилотлари уруш ва фашизмга қарши кураш олиб борди. 1934 йилда Парижда булиб утган Хотин - қизларнинг бутун жаҳон конгрессида мингдан ортиқ делегат катнашди ҳамда уруш ва фашизмга қарши, болаларнинг порлок келажаги учун курашувчи Жаҳон Хотин – қизлар қо'митаси ташкил этилди. Иккинчи жаҳон уруши даврида (1939-1945) куплаб аёллар ҳарбий операцияларда, Қаршилиқ ҳаракатида, партизанлар ҳаракатида, фашизмга қарши ҳаракатларда ко'плаб аёллар иштирок этган. Урушдан кейинги дастлабки йилларда аёллар демократик хотин - қизлар ташкилотларини тиза бошлади. Лотин Америкаси, Осиё ва Африка хотин - қизлари аёллар ҳақларида кенг жалб этила бошлади. 1945 йилда Париждаги Халқаро хотин - қизлар конгрессида ташкил этилган Халқаро Демократик Хотин - қизлар

Федерацияси бутун дунёда хотин - қизларнинг ахволини яхшилашга қаратилган ко'плаб тадбирларнинг ташаббускори бо'лди. БМТ ташкил этилгач, хотин - қизларнинг Гендер тенглик учун кураши тобора уюшган ва мақсадли тусга эга була бошлади. БМТ уставида тарихда биринчи бор барча одамларнинг ирки, жинси, тили ва динидан катъий назар тенглиги эълон қилинди. 1946 йилда БМТнинг Иктисодий ва ижтимоий кенгашнинг кушимча органи сифатида Хотин - қизлар макоми буйича комиссияни ташкил этди. Бунинг натижасида инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ масалаларни махсус куриб чиқиш ва хал қилиш, бутун дунёда хотин - қизлар ахволини урганиш учун шароит яратилди. 1948 йил 10 декабрда БМТнинг Бош Ассамблеяси "Умумжаҳон инсон ҳуқуқлари декларацияси"ни қабул қилди. Бу ҳужжат инсон ҳуқуқлари буйича жаҳон мик.ёсидаги асосий ҳужжатга айланди. Декларацияга таянгани холда хотин -қизлар ҳаракати аёлларнинг турли муаммоларга жамоатчилик эътиборини қарата бошладвг- Бирок, "Умумжаҳон инсон ҳуқуқлари декларацияси"нинг қабул қилиниши маълум маънода аёлларнинг қарам ахволини мустаҳкамлашга хизмат қилди. Бунинг сабаби шундаки, хотин - қизлар ҳуқуқлари инсоннинг умумий ҳуқуқлари сифатида эътироф этилмади ва натижада "о'зига хос" ҳуқуқларга айланиб қолди. Аёллар ҳуқуқларининг инсон ҳуқуқлари сифатида ажратилмагани ва таъкидланмаганлигининг асосий сабаблари бутун дунёда ижтимоий онгда ва амалиётда сакланиб қолган Гендер нотенглик нуқтаи назарлари, аёлларга нисбатан мавжуд анъаналар, меъёрлар, қарашлар, ақидалар, ижтимоий, иктисодий ва сиёсий манфатлар, шунингдек, аёллар ҳуқуқларининг инсон ҳуқуқлари сифатида расмийлаштирилмаганлиги билан борлиқ эди. Айрим давлатлар аёлларнинг оила, дин, маданият борасидаги ҳуқуқларининг бизилишини хусусий соҳа деб билиб, уларни эътиборсиз қолдирган.

II BOB. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKNI DASTLABKI YILLARIDA GENDER MASALALARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

II.1. Mamlakatimizda mustaqillikni qo'lga kiritish dastlabki tub o'zragishlarning gender xususiyatlari.

O'zbeklar turmush tarzida yoshlarning jamiyat hayotida erta nikoh qurish asosida turmush faoliyatiga olib kirish ham mazkur masalaning asosiy muammolaridan biri sanaladi. Oila qurilgach, erkak oldida nafaqat o'z oilasini ta'minlashi, balki «o'z bo'ynidagi qarzni uzish» masalasi ham yotadi. Ya'ni endi u o'zini tarbiyalagan, voyaga yetkazgan va to'y qilib uni oilali qilgan ota-onasini ham holidan xabar olib turishi “ham qarz, ham farz” hisoblanadi. Shuningdek, o'z avlodidagi boshqa aka-ukalar to'y-hashamlarida oilaning boshqa a'zolari bilan barobar ishtirok etishi va unga qilingan sarpo-suruqlardagi qarzni oshig'i bilan qaytarishi lozim yoki yangi turmush qurayotganlarni qarz qilishi kerak bo'ladi. Avval faqat o'z qavmu qarindoshlari doirasida oldi-berdi ishlarida qatnashgan bo'lsa, endi turmush o'rtog'i (er yoki xotin) tomonidagi qarindosh-urug'lari bilan ham faol munosabatga kirishishi lozim bo'ladi. Bu ham qarz hisoblanadi. Undan tashqari turli xil milliy va mahalliy xarakterga ega bo'lgan tadbirlar ham borki, unda ishtirok etmalik jamiyat tomonidan qattiq qoralanadi.

Yana muhim jihat, bu savob uchun qilinadigan tadbirlar va ota-bobodan qolib kelayotgan tadbirlar merosini amalga oshirish. Bular uchun sarflanadigan barcha sarf-harajatlarni erkak o'z zimmasiga olish kerak. Negaki erkak topib keladi, ayol ro'zg'or ishlari bilan band. Buning ustiga, bolalar tarbiyasi, supur-sidir ishlari va har xil mayda-chuydalar.

Endi masalaning muhim tomoniga e'tiborimizni qaratamiz. Har qanday kishi qaysi korxonada, tashkilot, idora yoki firmada ishlamasin biz yuqorida sanab o'tgan urf-odat va an'analar talabini to'liq uddalay olish imkoniyatiga ega emas. Ba'zan bir nechta davlat muassasida ishlab ham kishi o'ziga «yuklatilgan» talablarni bajara olmasligi mumkin. O'z imkoniyatlari chegaralangan erkak doimiy tavakkalchilik ichida yuradi. Jamiyatda belgilangan qonun va me'yorlardan chetga

chiqishga majbur bo'ladi (deviant shaxs). Buning hammasi xavfli tavakkalchilik ekanligini u juda ham yaxshi his qiladi. Ammo "an'anaviy erkak funksiyasi" uni shu yo'lga majburan tortadi. U sira ham o'ziga "noshud" degan tamg'ani yopishtirilishini istamaydi. Uni olmaslik uchun ko'p harakat qilish kerak bo'ladi, juda ham ko'p harakat... Negaki, uni ma'lum bir vaqt o'tib o'z farzandlari ham aybdor qilishi mumkin, ya'ni nohudlikda ayblash. Xususan, farzandni boshqalarga nisbatan yomonroq yashashi, o'qishga kira olmasligi yoki yaxshi ishga joylasha olmaslik, o'z iste'dodi talabiga javob beradigan mavqyega erisha olmaslik, xullas barchasi uchun "kimdir" aybdor bo'lishi kerak. Tabiiyki, bu o'z zimmasidagi funksiyani bajara olmagan kishi bo'lib qoladi.

Biroq, davr o'zgardi, odamlar bozor iqtisodiyoti munosabatlarini anglay boshladilar. Ehtiyojlar va iste'mol qilish darajasining keskin oshib ketishi, o'zbek jamiyati a'zolarining ham mentaliteti, hamda ongida muqim qotib qolgan stereotiplarni qaysidir darajada o'zgarishiga olib keladi. Bu birinchi navbatda jamiyat, xususan, o'zbek jamiyatida xotin-qizlarning faollashuvi bilan namoyon bo'ldi. An'anaviy turmush tarzi hamma davrlarda bo'lgani kabi yangilikka nisbatan qanchalik qattiq turib kurashishga harakat qilmasin, baribir ilg'or axborot va turli zamonaviy texnologiyalarning ta'sir kuchiga bardosh bera olmaydi. Afsuski, buni o'ta mutaassib an'anaviy kishilardan tashqari, ba'zan o'zlarini davrimizning ilg'or kishilari deb hisoblovchi ziyoli qatlam vakillari ham tushunishni istamaydilar. Oqibatda o'zlari qattiq turib himoya qilayotgan g'oyalari juda ham qisqa fursat, ya'ni 3-4 yil ichida asossiz bo'lib chiqqanidan keyin ko'pincha iztirob ichida qolib ketmoqdalar. Lekin, zamonaviy jamiyatning unchalik katta bo'lmagan makon ichida tubdan o'zgarish xususiyatiga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, har qanday ziyoli tadqiqotchini "aybdor" deb hisoblashga o'zini hurmat qilgan kishining haqqi yo'q. Chunki, zamonaviy fan, hoh u tabiiy bo'lsin, yoki ijtimoiy-gumanitar misli ko'rilmagan sur'atda taraqqiy etmoqda. Biz tomonimizdan ma'ruza sifatida taklif etilayotgan «gender» mavzusi bundan o'n yillar oldin an'anaviy jamiyatlarda ko'pchilikni deyarli qiziqitmasdi, na faqat qiziqitirish, hattoki, bizning jamiyatimizda uni tadbiq ham etib bo'lmaydi,

- deguvchilar istaganicha topilar edi. Bu masalaning bir tomoni, uning ikkinchi tomoni borki, u ham bo'lsa «gender» bu faqat ayollar muammosini talqin etuvchi yo'nalish sifatida qarab kelinar va G'arb jamiyatlariga xos bo'lgan «feminizm» harakati bilan chalkashtirilib yuborilardi. Aslida «gender» – bu «jinslar tengligi» masalasini tahlil etuvchi yangi sohadir. Shunday qilib, biz ma'ruzamizning birinchi qismida o'zbeklar jamiyatida mavjud bo'lgan, ammo ko'pincha yashirin tuyg'u hisoblangan «erkak funksiyasi» to'g'risida gapirgan bo'lsak, endi o'zbek jamiyatida «ayol» yoki xotin-qizlar mavzusi xususida ham ayrim mulohazalarimizni bermoqchimiz.

O'zbekistondagi yangi siyosiy tizimda shaxs va davlatning o'zaro munosabatlariga ustivorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog'liq. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirishning asosiy mexanizmi – bu, demokratiya, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha fuqaro va aholining huquqlarini kafolatlashtirishga qaratilgandir. O'zbekistonda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehniyat, xalqning tarixan tarkib topgan an'analari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etilmoqda. Mamlakat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, bunda birinchi navbatda inson manfaatlarini, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo'lib qolishiga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Davlatchiligimizning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlardan biri shaxsning ijtimoiy va siyosiy, binobarin, huquqiy faolligini ta'minlashdir. Jamiyatning ma'naviy va ahloqiy yetukligi darajasi hamisha xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanib keldi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi, ularning davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi bilan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq «*xotin-qizlar masalasi*» deb atalgan muammo so'nggi yillarda kun tartibidan ketgani yo'q.

Xotin-qizlar faoliyati, ularning haq-huquqlarini to'la ta'minlash, o'z huquqlarini davlat va uning idoralari tomonidan qanday himoya etilayotganliklarini bilishlariga ham bog'liq.

Shu bois masalaning muhim va dolzarbligini hisobga olib 2004 yil 25 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **«O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining, respublika Xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sosial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Farmonning 2 bandida eng muhim va asosiy vazifa qilib quyidagilar belgilanadi: Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarni kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, ularning sosial, ijtimoiy-siyosiy faolligini davlat qurilishi sohasidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan umummilliy siyosatni ro'yobga chiqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish; ularni ish bilan ta'minlash masalalari; xotin-qizlarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan samarali hamkorlikni ta'minlash va boshqalar.

Ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida 2004 yil 29 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori chiqadi. Ushbu qarorda o'tgan davrlar ichida mavjud masala bo'yicha olib borilgan ish va tadbirlardagi kamchilik va xatolar keskin masal sifatida o'rta tashlanadi. Jumladan, ayollarning muayyan qismi, ayniqsa qishloq joylarda, xotin-qizlar qo'mitalarining e'tiboridan chetda qolmoqda, ular o'z holiga tashlab qo'yilgan va u bois turli, jumladan buzg'unchi kuchlarning ta'sir obyektiga aylanmoqda. Yoki, xotin-qizlar qo'mitalarining faoliyati, eng avvalo, xotin-qizlarni ish bilan

taminlash muammosini hal etishga, shu jumladan, vaqtinchalik ish o'rinlari barpo etish, kasanachilik mehnatini tashkil etish va xotin-qizlarni ishga joylashtirishning boshqa shakllaridan foydalanishga qaratilishi zarur. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy va boshqa yordamlar bilan birga xotin-qizlarga ishlash uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish darkor.

Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa tarixga nazar tashlansa, yangi bozor tizimi hayotiga ijtimoiylashuv erkaklarga nisbatan ayollarda oson kechganini kuzatish mumkin. Mehnat taqsimotining ham an'anaviy, ham zamonaviy ko'rinishidagi turlarida ayollar ishtiroki birlamchi mazmun kasb eta boshladi. «Mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar xotin-qizlarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Turli ijtimoiy bosqichlarda ularning hissasi goh oshib, goh kamayib bordi, biroq hamisha xotin-qizlar zimmasiga ijtimoiy-foydali mehnatni amalga oshirib borishga ham to'g'ri kelgan. Shu bois hozirgi sharoitlarda mehnatni uyushtirishga qaratilgan huquq me'yorlari, shubhasiz xotin-qizlarning ana shu ijtimoiy va uy-ro'zg'ordagi mehnatni amalga oshirishga oid xususiyatlarini inobatga olishi lozim».

Davr taqazosi bilan yangi vujudga kelayotgan mehnat o'rinlari yoki turlarini ayollar qanchalik tez zabt etib borayotgan bo'lsalar, an'anaviy davom etib kelgan kasblarni ham erkaklar shu tarzda ayollarga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqdalar. Biz tomonimizdan ko'tarilayotgan an'anaviylikni ikki xil holatda ko'rib chiqishni taklif etmoqchimiz. Birinchidan, diniy ta'sirlar ostida shakllangan milliy xususiyatlarga xos uzoq an'anaviylik hamda ikkinchisi - bu sovet tuzumi davrida shakllangan yaqin an'anaviylik. Ammo har ikki holatdagi mehnat taqsimoti jarayonida ayollarning faollashuviga sabab qilib quyidagi mulohazani ilgari surish mumkin: erkaklar tabiiy xususiyatiga ko'ra ishning natijasiga emas, balki bo'ladigan jarayonga e'tiborni qaratadilar, ayollar esa kutiladigan oqibat, ya'ni natijaga tayanadilar.

Bundan 10-12 yil ilgari mamlakatimizda ishsizlik deb atalgan ijtimoiy hodisa mavjudligi tan olinmas edi. Shu bois qonunchilikda ham insonning ish bilan ta'minlash huquqini amalga oshirishni Aniqlaydigan va kafolatlaydigan me'yorlar

bo'lmas edi. Ish joylarining yetishmasligi va xo'jalik hisobi uzil-kesil amal qiladigan sharoitlarda faoliyat turini, sheriklarni sotish bozori kabalrni mustaqil tanlash aksariyat korxonalarining sinishiga olib keladi. Binobarin, bunday korxonalar tugatiladi va ko'p miqdordagi xodimlar ishdan bo'shatiladi. Ishsizlar sonini tashkil etuvchi ijtimoiy guruhning bir qismini xotin-qizlar tashkil etar edi. Bu esa to'g'ridan –to'g'ri aholi ish bilan bandliginining oshkora ta'rifini berish zarurligiga olib keldi. Shunga ko'ra ishsizlikni, kishilarni band etishning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini belgilash, bu bilan ularga mehnat daromadlari olib keladigan, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan faoliyat bilan ta'minlash kun tartibidagi masalaga aylandi. Bu xususda 1992 yili 13 yanvarda O'zR «Aholini ish bilan band qilish to'g'risida»gi qonundan batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

Endi xotin-qizlarni mehnat bilan band qilish masalasi hozirgi kunda dolzarb masalaga aylanganini va uning huqumat darajasiga ko'tarilganini hisobga olib quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surish mumkin:

- Davlat hotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va banlik masalalarni ko'plab rivojlangan davlatlardagi kabi o'z nazoratiga olishi kerak va bu ishni jadallashtirish uchun kafolatlangan tarzda nodavlat tashkilotlarni belgilangan qonunchilik asosida keng jalb etishi kerak;

- har bir viloyatning qaysidir bir Oliy o'quv yurti (hokimiyatda emas) qoshida xotin-qizlarni o'rta va kichik biznesni tashkillashtirishga oid tayyorlov kurslarini tashkillashtirish va bunga malakali mutaxassislarni jalb etish;

- Nodavlat sektordagi fuqarolar mehnat munosabatlarini mutanosiblashtirish jarayonida ularni davlat tomonidan muhofaza qilish tamoyillarini imkon qadar amaliyotda keng qo'llab-quvvatlashga erishish.

- bugun asosiy fuqarolar, ayniqsa xotin-qizlar tafakkurida qattiq o'mashib qolgan «barcha mablag'ni to'y-hasham va marakalarga sarflash» kayfiyatini

o'zgartirish hamda imkon qadar to'plangan mablag'ni qo'shimcha daromad keltiradigan biron bir sohaga jalb etish ko'nikmasini shakllantirish.

Fuqarolik jamiyatining negizi – bu o'z jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'li shva qonunlarni hurmat qilishga qaratilgani bois, xotin-qizlarni jamiyatning bir a'zosi sifatida doimiy huquqiy bilimlarini davomiy oshirib borishdir. Bu esa muhim va dolzarb masala sanaladi.

Ammo biz tomonimizdan dabdabali sur'atda gapirilayotgan bu fikr-mulohazalar real hayotda qanchalik o'z ifodasini topmoqda – degan savol tutilishi mumkin. Ma'lumki, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ziyodi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Bu degan shuncha aholi asosan qishloq xo'jaligi sohasiga ko'nikma hosil etgan kishilar sanaladi. Ammo bozor iqtisodiyoti kasbiy mahorati yuqori bo'lgan kishilarga ehtiyoj sezadi. Buni o'z vaqtida to'g'ri baholagan mamlakat hukumati barcha viloyat va shahar hududlarida yuzlab kasb-hunar kollejlari va liseylar tashkil etildi. Lekin bu degani jamiyat to'liq kasbiy mahorat darajasiga erishdi degani emas. Negaki, mazkur kollejlari tashkil etilganligiga bir necha yillar tashkil etildi. Ammo aholining katta qismi, ya'ni 30 yoshdan katta bo'lgan aholi, ayniqsa qishloq hududlarda yashovchilar o'z kasb mahoratini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar. Tabiiyki, bunga katta foizdagi ayollar qatlamini ham qo'shishimiz mumkin. Mavzuni yanada boyitish uchun ayrim statistik ma'lumotlarga e'tiborni qaratsak:

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda yoshlar ko'rsatkichini demograf va sosiologlar 16-30 yosh oralig'ida olishni taklif etadilar¹. Shundan kelib chiqqan holda Respublika aholisining 50 % ga yaqinini 16 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishi ahamiyatga molikdir². 18-30 yoshgacha bo'lganlar 35 % ni tashkil etib, umumiy hisobda olganda, yoshlar O'zbekiston aholi tarkibining 65 % ni tashkil etadi³.

¹ Қаранг: Упарвление, ценности и образ жизни молодежи в странах Центральной Азии. Т.1.

² Шу жойда.

³ Қаранг: Оценка уровня социальных настроений молодежи Узбекистана. Методология, разработка.

O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlarining 2013 yilgi holatiga ko'ra uning aholisi 26 mln. 568 ming 910 kishini tashkil etadi⁴. Shundan erkaklar 13 mln. 343 ming 410 ta yoki 50,1 % va ayollar 13 mln. 225 ming 500 ta yoki 49,9 % dan iborat⁵.

Yosh davrlari bo'yicha aholining demografik ko'rsatkichlari:

- 16-17 yoshlilar - 1 mln. 246 ming 500 ta. Shundan ayollar – 617 ming 400 ta, erkaklar – 629 ming 100 ta;
- 18-19 yoshlilar - 1 mln. 108 ming 500 ta. Shundan ayollar – 550 ming 500 ta, erkaklar – 558 ming 400 ta;
- 20-24 yoshlilar - 2 mln. 402 ming 400 ta. Shundan ayollar – 1 mln 191 ming 400 ta, erkaklar 1 mln. 211 mingta;
- 25- 29 yoshlilar – 2 mln 60 ming 500 ta. Shundan ayollar 1 mln 23 ming 600 ta, erkaklar 1 mln 36 ming 900 ta.⁶

Ta'lim tizimining asosiy kursatkichlari:

- Akademik liseylar – 51 ta. Undagi o'quvchilar soni – 20 ming 500 ta;
 - Kasb-xunar kollejlari – 414 ta. Undagi o'quvchilar soni 366 ming 900 ta;
 - Kasb-texnika o'quv maskanlari – 227 ta. O'quvchilar soni 63 ming 700 ta;
 - Urta maxsus o'quv maskani – 141 ta. O'quvchilar soni 158 ming 500 ta.
- Bunda xar 10.000 axoliga 62 tadan o'quvchi tugri keladi.⁷

Oliy o'quv yurtlari buyicha ma'lumot:

- Respublikada jami 64 ta Oliy o'quv yurti faoliyat yuritadi.
- Umumiy talabalar soni 232 ming 300 tani tashkil etadi. Bu kursatkich xar 10.000 axoliga 91 ta talaba tugri kelishini bildiradi.
- 2003 yili 54 ming 600 ta talaba ukishga kabul kilingan.

⁴ Каранг: Образование в Республике Узбекистан.

⁵ Шу китоб.

⁶ Каранг: Образование в Респ

⁷ Шу китоб

- Shu yili 39 ming 800 ta talaba ukishni tamomlagan, bu degani xar 10.000 kishiga 16 tadan talaba tugri keladi.⁸

O'rta maktab va maxsus gimnaziyalar buyicha ma'lumotlar:

1. O'rta maktablarning 10-11 sinflarida o'qiydigan o'quvchilar soni 489 ming 700 tani tashkil etadi
2. Gimnaziya tipidagi o'quv maskanlari soni 103 tani tashkil etadi.
3. 2002 yili o'rta ta'lim tizimini 600 ming 20 ta o'quvchi tamomlagan.

Yuqori Oliy ta'lim tizimi – doktorantura

- Respublika bo'yicha 2012-2013 o'quv yilida 2891 ta doktorant ro'yxatga olingan.
- Shu yili 810 ta ilmiy xodim doktoranturaga y'kishga qabul qilingan.
- Shu yili 1031 ta katta ilmiy xodimlar tamomlagan.
- 133 ta doktorant ilmiy ishni muvaffaqiyatli himoya qilgan⁹.

O'zbekistonda yoshlar ko'rsatkichi 30 yoshgacha bo'lganlar orasida belgilangan. Aholining yillik o'sish ko'rsatkichi 2,2 % tashkil etadi. Shunga asoslangan holatda aholining umumiy soni 26 mln. 480 ming kishini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy mahorat yuqori mazmun kasb etishini va ikkinchi tomondan kishilarda iste'molchilik kayfiyatining oshib borish sharoitida Xotin-qizlarning ham jamiyat hayotiga faol kirib borishi zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu vaqtda an'anaviy turmush tarziga ko'nikkan qishloq ayoli qanday mavqeyeni egallaydi,- degan savol tug'ilishi mumkin. To'g'ri, bu o'rinli savol va unga asosli javob ham bor. Demak, ayollarning asta-sekin mehnat bozoriga kirib kelishi va uni egallashi. Sosiologlar bugungi o'zbek jamiyatida qishloq ayolining mehnat jarayonlaridagi ishtirokini quyidagilarda ko'radi:

- mayda savdo-sotiq yoki tijoratchilik;
- fermer xo'jaliklarida shartnoma asosida ishlash;
- bir marotabalik mehnat bozorlarida qatnashish yoki mardikorlik.

⁸ Шу китоб

⁹ Каранг: Образование в Республике Узбекистан.

Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa tarixga nazar tashlansa, yangi bozor tizimi hayotiga ijtimoiylashuv erkaklarga nisbatan ayollarda oson kechganini kuzatish mumkin. Mehnat taqsimotining ham an'anaviy, ham zamonaviy ko'rinishidagi turlarida ayollar ishtiroki birlamchi mazmun kasb eta boshladi. «Mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar xotin-qizlarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Turli ijtimoiy bosqichlarda ularning hissasi goh oshib, goh kamayib bordi, biroq hamisha xotin-qizlar zimmasiga ijtimoiy-foydali mehnatni amalga oshirib borishga ham to'g'ri kelgan. Shu bois hozirgi sharoitlarda mehnatni uyushtirishga qaratilgan huquq me'yorlari, shubhasiz xotin-qizlarning ana shu ijtimoiy va uy-ro'zg'ordagi mehnatni amalga oshirishga oid xususiyatlarini inobatga olishi lozim».¹

Davr taqazosi bilan yangi vujudga kelayotgan mehnat o'rinlari yoki turlarini ayollar qanchalik tez zabt etib borayotgan bo'lsalar, an'anaviy davom etib kelgan kasblarni ham erkaklar shu tarzda ayollarga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqdalar. Biz tomonimizdan ko'tarilayotgan an'anaviylikni ikki xil holatda ko'rib chiqishni taklif etmoqchimiz. Birinchidan, diniy ta'sirlar ostida shakllangan milliy xususiyatlarga xos uzoq an'anaviylik hamda ikkinchisi - bu sovet tuzumi davrida shakllangan yaqin an'anaviylik. Ammo har ikki holatdagi mehnat taqsimoti jarayonida ayollarning faollashuviga sabab qilib quyidagi mulohazani ilgari surish mumkin: erkaklar tabiiy xususiyatiga ko'ra ishning natijasiga emas, balki bo'ladigan jarayonga e'tiborni qaratadilar, ayollar esa kutiladigan oqibat, ya'ni natijaga tayanadilar.

Bu mulohazalar to'g'ridan-to'g'ri aholini ish bilan bandligining oshkora ta'rifini berish zarurligiga olib keladi. Shunga ko'ra ishsizlikni, kishilarni band etishning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini belgilash, bu bilan ularga mehnat daromadlari olib keladigan, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan faoliyat bilan ta'minlashni kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylantiradi.

¹ Ўзбекистонда хотин-қизлар, қонун ва жамият муаммолари. Тошкент, 1999. – 63 бет.

Ko'pincha biz ommaviy axborot vositalarida, hattoki ko'plab yig'in va tadbirlarda ayollarning hych qachon bir marotabilik mehnat bozorlarida (mardikorlik) qatnashmaganliklarini ayuxannos solib jar solayotgan kishilar fikrlarini eshitamiz. Bu aslida bozor munosabatlarini hali to'liq anglab yetmayotganligini sababidir. Ayollar bir marotabalik mehnat bozorlari va migrasion jarayonlarda qatnashishga majbur, chunki ularning turmush o'rtoqlari asosan qishloq xo'jaligida ishlagan va qishloq xo'jaligi ukladiga moslashgan odamlar ekanligini unutmasligimiz lozim. Mentalitetdagi mavjud stereotiplar kolxoz-sovxoziar tizimini tugatilishi bilan ularning ruhiyatini shu darajada sindirib tashlaganki, uni yo'qotish uchun juda ham katta sarmoya kerak bo'ladi. Birinchi navbatda yangi zamonaviy ta'lim dasturlari va ikkinchidan gender ta'limotini chuqur o'rganib, o'zbekistonlik ruhiyatida tahlil etish. Agar bunga e'tibor kuchaytirilmasa, qishloq aholisining turmush tarzidagi ijtimoiy-ruhiy kayfiyat izdan chiqib borish holati ekspertlar tomonidan kuzatiladi. Mamlakatda kolxoz va sovxozlar ixtiyorida bo'lgan yerlarning fermer xo'jaliklariga berilishi, yuqorida t'kidlaganimizdek, minglab kishilarni ishsiz qolishiga sabab bo'ldi. Gender muammolarni yoritayotganimizda aynan biz shu jihatlarga e'tiborimizni qaratsak foydadan holi bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender jarayonlar bu zamonaviy xususiyat bo'lmay, u hamma vaqt hamma davrlarda davom etgan. Bugungi kunga kelib gender jarayonlarning bosh masalasi insonning "o'zini namoyon etishi" bilan belgilanadi. Bu degani o'z turmush darajasini yaxshilash, ehtiyojlarini qondirish uchun o'zidagi barcha imkoniyat (resurs), qobiliyat va iste'dodini imkon darajasida tenglik asosida namoyon etishdir. U aqliy, jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Eng asosiysi gender ta'limoti tomonidan kishilarga taklif etilayotgan tenglik jamiyatda yozilgan va ba'zan yozilmagan qonunlarni buzmaslik asosida bo'lsa, ta'kidlash mumkinki O'zbekiston sharoitida Ushbu ta'limot o'zini oqlaydi.

Zamon davlatdan barcha vazifalar va harakatlarga gender yondashuvini singdirishni talab qiladi. Bunday yondashuvning uslubi - hayotning turli sohalarini gender bo'yicha tahlil qilishdan iboratdir. Bu uslub jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida turli davlat dasturlari, qonunchilik yoki siyosiy kursning xotin-qizlar va erkaklar turmushiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Jinslar tengligi tushunchasini to'liq ochib berishga monelik qiladigan to'siqlarning mavjudligiga quyidagilar asosiy sabab bo'ladi:

1. Asosiy e'tibor jinslarning de-yure tengligiga qaratiladi va bu esa xotin-qizlarni har doim ham kamsitishning barcha shakllaridan ham samarali himoya qila olmaydi. Qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayonida ko'pincha jamiyat faoliyatining umumiy jihatlari hisobga olinmaydi;

2. Xotin-qizlar qo'mitalari o'z vazifalarini amalga oshirishda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bera olmaydigan tuzilmalar doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Bu qo'mitalar yuqori darajadagi davlat xizmatchilari tomonidan boshqarilib, nomenklatura bilan uzviy aloqada bo'lsada, ularning faoliyati va vakolatlari muayyan ma'noda cheklangandir. Fuqarolar hayotiga oid qarorlar qabul qilish sohasidagi ta'siri me'yorlangan.

3. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki yetarlicha emas, jinslar o'rtasidagi tenglikni ilgari surish muammosi hali saqlanib qolmoqda. Ko'rilayotgan choralarning ko'pchiligi asosan xotin-qizlarning o'ziga xos ehtiyojlariga qaratilib, tengsizlikni keltirib chiqarayotgan qator sabablarni chetlab o'tmoqda.

II. 2. O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR QO'MITALARINING TASHKIL TOPISHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi «Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning rolini oshirish to'g'risida»gi farmoni respublika hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bolalarni tarbiya qilish sharoitini yaxshilash va ayollarning mehnat faoliyatidagi qiziqishlarini oshirish maqsadida «Ayollar uchun qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida» qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, ayollarni ijtimoiy, siyosiy sohaga faolroq jalb etish va ularning oiladagi rolini oshirish maqsadida 2004 yil 25 mayda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 2004 yil 29 iyunda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi¹.

Xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha o'zgarishlar siyosiy sohaga ham ta'sir qildi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasiga xotin-qizlarning deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishida 30 foizlik kvota belgilandi.

Bu qoida xotin-qizlarning saylovoldi kampaniyasidagi faolligini oshiradi va ularning deputat etib saylanishi borasidagi imkoniyatlarini kengaytiradi hamda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida ayollar sonining ko'payishi uchun sharoit yaratadi. Hozir Qonunchilik palatasining deputati 21 ayol (18 foiz) va 18 ayol (15foiz) Oliy Majlis Senatining a'zosi hisoblanadi. Ijro organlarida ayollarning umumiy soni 3,4 foiz, sud organlarida esa 22,7 foizni tashkil qiladi.

¹.Ўзбекистон Республикаси қонунлар тўплами.2007 й. №15.153-м.

Demokratiya va huquq tamoyillariga nafaqat davlat organlari, balki alohida shaxslar tomonidan ham rioya etilishi huquqiy davlat uchun muhimdir. Bunday davlatda insonning huquq va erkinliklariga hurmat, inson qadrini tahqirlash, insonga nisbatan zo'rvonlik qilish, ayniqsa, qullik, odam savdosi va uni ekspluatasiya qilish bilan mutanosib emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'tish davrining eng muhim va yechimi kechiktirib bo'lmaydigan muammolaridan biri - oiladagi zo'rvonlik muammosidir. Umumiy ko'rinishda oiladagi zo'rvonlikni quyidagicha farqlash mumkin: xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik, bolalarga nisbatan zo'rvonlik va qarindoshlarga nisbatan zo'rvonlik.

Oilaviy munosabatlarda teng huquqlilikka erishish - inson huquqlari tizimiga doir ijtimoiy-demokratik institutning tarkib topishi natijasidir. Uning vujudga kelishiga jinslarning davlat tuzilmalarida, hukumat bilan va o'zaro munosabatlarida tegishli normalarni topishning murakkab jarayoni sabab bo'lgan. Tarix shundan dalolat beradiki, teng huquqlilik g'oyasi hamda uni amalga oshirish odob-ahloq, ma'naviy-madaniy va diniy jihatlardan iborat majmuani o'z ichiga oladi.

Xotin-qizlar deyarli barcha davlatlar aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi, shuning uchun aholi yarmining huquqlari poymol qilinganda, amalda demokratiyaga asoslangan jamiyat to'g'risida gapirish qiyin. Xotin-qizlar ustidan zo'rvonlik muammosi davlatdagi nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit va yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratishdagi qoloqlikdan dalolat beradi. Garchi insonga nisbatan barcha turdagi zo'rvonlik va kamsitishlarni bartaraf etish taqozo etilsada, xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik alohida ahamiyatga muhtoj, chunki bu holat butun jamiyatga tegishlidir.

Oilada xotin-qizlar ustidan zo'rvonlik jiddiy muammodir. BMTda e'lon qilingan gender tengsizligi to'grisidagi ma'ruzada ta'kidlanganidek, dunyodagi xotin-qizlarning uchdan biri o'z hayotida zo'rvonlikka uchragan. «Dunyodagi

xotin-qizlarning uchtadan bittasi o'z hayotida zo'ravonlikka uchragan - bu hayratlantiradigan statistika. Gender diskriminasiyasi - barcha kamsitishlar ichida eng yomoni» - deb ta'kidlagan edi BMT Bosh sekretarining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Joze Antonio Okampo.

Oiladagi zo'ravonlik sezilarli tibbiy xarajatlarga olib keladi. Jahon banki o'zining «Dunyo rivoji to'g'risidagi ma'ruza»sida ta'kidlaganidek, «sanoati rivojlangan mamlakatlarda nomusga tegish va oiladagi zo'ravonlik 15 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan sog'lom xotin-qizlarning besh yillik umridan qariyb bir yilini o'g'irlyadi». Shuningdek, hujjatda aytiladiki, «aholi jon boshiga hisoblaganda oiladagi zo'ravonlik oqibatida reproduktiv yoshdagi ayollar sog'ligiga tegadigan zarar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda taxminan bir xil».

Oiladagi zo'ravonlik hudud yoki qit'alar doirasi bilan chegaralanmaydi va dunyoning barcha davlatlarida turli darajada mavjud. Bu haqda gapirmaslik ma'qul ko'rilsada, dunyoda oiladagi zo'ravonlik shakllari ancha keng tarqalgan.

Bu holatning ko'lami nafaqat jamiyat a'zolarining ko'pchiligi tomonidan, balki illatga qarshi kurashishga qaratilgan kasb vakillari tomonidan ham to'la anglab yetilmagan. Ko'pchilik oiladagi zo'ravonlikni davlat ishi deb emas, har bir oilaning ichki muammosi, deb hisoblaydi. Jabrlanganlar soni va himoyalani ulublari to'g'risida ma'lumotning yo'qligi esa bu holatni yanada murakkablashtiradi¹.

Oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan huquqiy choralari har doim ham samarali emas va ularni sud organlari, prokuratura va ichki ishlar organlari tomonidan qo'llash amaliyoti jabrlanuvchilarning odil sudlovdan foydalanishini ta'minlay olmaydi.

Huquqning turli tarmoq normalari bir-biridan alohida amalga oshirilmoqda, masalan, jinoiy-huquqiy normalar jabrlanuvchini himoya qilishning fuqarolik-

¹ Ўзбекистонда Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асоаларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

huquqiy choralari bilan birga qo'llanilmaydi, garchi ko'pincha ular birgalikda samaraliroq bo'lsa-da. Jabrlanuvchini himoya qilishning noyuridik vositalaridan: psixologlar, ijtimoiy va tibbiyot xodimlari yordamidan foydalanilmaydi. Tarmoqlararo yondashuvning yo'qligi natijasida oiladagi zo'ravonlik muammosining yechimiga zarar yetadi.

Oiladagi zo'ravonlik nima?

Oiladagi zo'ravonlik - bu oila a'zolariga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki yetkazadigan, jins xususiyatiga ko'ra sodir etilgan zo'ravonlik akti yoki oilada, shaxsiy hayotda uchraydigan ozodlikdan o'zboshimchalik bilan mahrum qilish yoki unga majburlash tahdidi¹.

Oiladagi zo'ravonlik bu oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosiga nisbatan qasddan sodir etilgan harakatdir. Bunda zo'ravonlikka uchragan oila a'zosining konstitusion huquq va erkinliklari poymol qilinib, unga ruhiy yoki jismoniy zarar yetkaziladi. Bundan tashqari, zo'ravonlik oilaning voyaga yetmagan a'zosiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, uning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishiga zarar yetadi.

Oiladagi zo'ravonlik obykti bo'lib oilaning har bir a'zosi - er-xotin, bolalar, qariya ota-onalar bo'lishi mumkin, shuning uchun oiladagi shafqatsizlikning uch turi alo-hida ko'rsatiladi. Xususan:

- er yoki xotinning bir-biriga nisbatan munosabatida;
- ota-onalarning bolalariga nisbatan munosabatida;
- bolalar yoki nabiralarning qariya qarindoshlarga nisbatan munosabatida.

¹ Анишик О. О. Насилие над жещчинами в семье: проблемы доступа жертвы к справедливому разрешению конфликта с агрес-сором// Юридический аналитический журнал. № 1—2 (13—14), 2005. С. 117—138.

Ammo milliy odatlar va madaniy an'analarga ko'ra ular bilan birga yashaydigan qarindoshlar ham oila a'zosi hisoblanadi. Shunday kilib, oiladagi zo'ravonlik «oilasi ishi» bo'lmay, vaholanki ko'pincha jamoatchilik o'rtasida shunday fikr mavjud, butun jamiyat va oila rivojiga jiddiy zarar yetkazadigan terror va bo'ysundiruvchi munosabatlar tizimidir. Shuning uchun ham oiladagi zo'ravonlikning asosiy uch shakli alohida ko'rsatiladi - jismoniy, ruhiy va jinsiy. Bunda jinsiy zo'ravonlik birinchi marta alohida toifa sifatida ko'rsatilgan.

Qonunlarda keltirilgan yana shunday yangi holatlardan biri bu xalqaro andozalarning rioya etilishiga asoslangan va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan oila a'zolarini himoya qiladigan mexanizmlarni yaratishdir. Ular jumlasiga tezkor intimoiy yordam sifatida oiladagi zo'ravonlikning oldini olishni kiritamiz. Bunda oila a'zosining hayoti va sog'ligi uchun bevosita xavf tug'ilganida bu xavfni bartaraf etish uchun hamda kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda oila a'zosining xavfsizligini ta'minlash uchun te-gishli xizmatlar tomonidan yordam ko'rsatiladi¹.

Oiladagi zo'ravonlik oilada erkaklarning roliga nisbatan noto'g'ri munosabatlarga ham asoslangan bo'lib, yuqorida ko'rsatilgandan tashqari quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

- iqtisodiy tazyiq, bunda tajovuzkor shaxs o'z qo'rbonining ishga joylashishiga va ishlashiga to'sqinlik qilib, mablag'dan mahrum qiladi va pul so'rashga majburlaydi;
- bolalarni manipulyasiya qilish (boshqarish), ularda aybdorlik hissini hosil qilib, bolalardan vositachilik maqsadlarida va ularni olib qo'yishni qo'rqitish maqsadida foydalanish;
- erkaklik imtiyozlaridan foydalanish, ya'ni, ayolga quyi mavjudot deb qarab, unga nisbatan avtoritar, diktatorlarcha munosabatda bo'lib, oilada yakkahokimlikni joriy qilish;

¹ Хотин-қизларга нисбатан эъравонликка бархам бериш тўғрисида Декларация, БМТ Бош Ассамблеясининг Резолюцияси билан 1994 йил 23 февралда қабул қилинган.

- harakatlar bilan qoʻrqitish, yaʼni jabrlanuvchining mulkiga zarar yetkazish yoki yoʻq qilish;

- yakkalash, yaʼni, ayolning nima qilishi, kim bilan doʻstlashishi, koʻrishishi, gaplashishini doimiy nazorat qilish, ayolga oʻz yaqinlari bilan muloqot qilishini taqiqlash¹.

Oiladagi zoʻravonlikning quyidagi asosiy shakllari mavjud:

- jismoniy zoʻravonlik - oilaning bir aʼzosi tomonidan boshqa aʼzosiga qasddan badaniga, sogʻligiga shikast yetkazish, oʻzboshimchalik bilan ozodligidan, uy-joyidan, ovqatdan, kiyim-kechakdan va boshqalardan mahrum etish. Buning oqibatida esa uning oʻlimiga, jismoniy yoki ruhiy sogʻligiga putur yetishiga sababchi boʻlib, jismoniy dard, shaʼni va qadr-qimmatiga esa zarar yetkaziladi.

- ruhiy zoʻravonlik - bunda oilaning bir aʼzosi tomonidan boshqa aʼzosining shaʼni va qadr-qimmati qasddan kamsitiladi, doʻq qilish, qoʻrqitish, haqoratlash bilan uning hayoti va sogʻligiga zarar yetkazadigan harakatlar sodir etishiga majbur qilinadi.

- jinsiy zoʻravonlik - oilaning bir aʼzosi tomonidan boshqa aʼzosining jinsiy daxlsizligi yoki jinsiy ozodligiga tajovuz qilish;

Koʻpincha oiladagi zoʻravonlikka kam uchraydigan, oʻtmishda qolib ketgan, oʻylab topilgan holat, muammo deb qaraladi. Achinarlisi, bunday fikrni oiladagi zoʻravonlikdan jabr koʻrganlarga yordam koʻrsatish uchun masʼul boʻlgan yuristlar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar aytadilar.

Baʼzilarning taʼkidlashicha, oilada xotin-qizlarga nisbatan boʻladigan zoʻravonlik erkaklarga nisbatan zoʻravonlikka qaraganda koʻp uchramaydi. Biroq, jahon tajribasida rasman tan olingan 95 foiz holatlarda erkaklar ayollarga tajovuz qilgan. Ayollar erkaklarga qaraganda 10 baravar koʻp zoʻravonlik qurboni

¹ Горшкова И. Д., Шурмгина И. И. Насилие над женами в современных российских семьях. — М.: МАКС Пресс, 2003 год.

bo'ladilar. Ularning o'zlari zo'rlikni juda kam ishlatadilar. Faqat o'zlarini himoya qilish va jazolash uchungina qo'llashlari mumkin. Bunda zo'rlikning oqibatlari ham erkaklarning ayollarga nisbatan shafqatsiz zo'ravonligi oqibatlariga qaraganda yengildir.

Jamiyatda oiladagi zo'ravonlik to'g'risida turli afsonalar bor. Masalan, ba'zi ayollar o'zlari zo'rlik ishlatishga sabab bo'ladilar va bunga loyiqdirlar, oilada zo'ravonlikka uchraydigan ayollar mazoxistdirlar, er va xotin o'rtasidagi janjal tabiiy bo'lib, jiddiy oqibatlarga olib kelmaydi, zo'ravonlikka uchraydigan ayollar xohlagan paytda uydan ketishi mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, oiladagi zo'ravonlik - ijtimoiy muammo bo'lib, insonlarga bolaligidan uqtiriladigan gender stereotiplariga asoslanadi. Haqiqatda esa zo'rlik ishlatgan shaxs har doim o'z qilmishini oqlay oladi.

Oiladagi zo'ravonlikning mavjudligini tan olmaslik u haqda gapirmaslik bilan ham bog'liq. Oiladagi zo'ravonlik to'g'risida rasmiy statistik ma'lumotlarni topish oson emas. Bu muammo bilan asosan ayollar huquqni muhofaza qilish tashkilotlari shug'ullanadi, ularning faoliyatiga esa ko'pincha feministik holat deb qaraladi va har doim ham qo'llab-quvvatlanmaydi.

Jamoatchilik va davlat oilalarda xotin-qizlarni kiynashni to'xtatishga va bunday zo'ravonliklarni sodir etayotgan erkaklar xulq-atvorini o'zgartirish uchun tegishli choralar ko'rishga majburdir. Aksariyat hollarda oiladagi zo'ravonlikdan zo'ravonlik sodir etgan shaxsning o'zi ham aziyat chekadi. Ko'pincha xotin yoki onani himoya qilayotgan bolalar zarur mudofaa chegarasidan chiqib ketadilar.

Bundan tashqari, zo'ravonlik oilaning boshqa a'zolari, ayniqsa bolalarga nisbatan ham sodir etiladi. Natijada bola og'ir jarohatlanib, uning ruhiy va jismoniy sog'lig'ining rivojlanishida salbiy alomatlar paydo bo'ladi. Ko'proq o'g'il bolalarga ziyon yetkaziladi, chunki ko'pincha ular ota-onalaridan o'rnak oladilar va kelajakda o'z oilalarida ham shunday shafqatsizlik qiladilar. Jamiyat uchun esa bunday holat, ya'ni bolalarning o'z oilalarida ko'rgan zo'ravonlikni

keyinchalik o'zi qurgan oilasida ham qo'llashlari juda xavflidir. Bunday oila jamiyat uchun insonni xo'rlash mumkin, kuchsizlarga qo'l ko'tarish mumkin, deb hisoblaydigan bosqinchini tarbiyalaydi. Buning natijasida esa o'smirlar orasida jinoyatchilik ko'payadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jinsiy munosabatlar va shaxsiy hayotni keng omma oldida ochish boshlandi. Shu paytgacha katta siyosat uchun ahamiyatsiz va mayda sanalgan - abort, reproduktiv salomatlik, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, gomoseksualistlarni ta'qib qilish, uy-ro'zg'or sohasi va bolalar tarbiyasi bilan bog'liq mavzulari nafaqat obro'-e'tiborli, balki zamonaviy demokratiyaning siyosiy sahnasida ustuvor o'rin olish uchun musobaqaga kirishgan holda butunlay yangicha ko'rinish kasb etish sari yuz tutdi.

Gender masalalari Xalqaro xotin-qizlar yili deb e'lon qilingan 1975 yilda birinchi marta BMTning kun tartibiga qo'yildi. BMT 1975-85 yillarni Xalqaro xotin-qizlar o'n yilligi deb e'lon qildi. Birin-ketin xotin-qizlar masalalari bo'yicha muhim xalqaro forumlar o'tkazila boshlandi. Jumladan, BMTning xotin-qizlar ishlari bo'yicha Mexikoda (1975 yil), Kopengagenda (1980 yil), Nayrobida (1985 yil), va Pekinda (1995 yil) o'tkazilgan konferensiyalarida 189 davlatdan tashrif buyurgan 17 ming vakila ishtirok etdi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar tashkilotlari gender masalalarini BMTning barcha hujjatlari va dasturlariga kiritishga erishdilar. Ulardan eng muhimlari inson huquqlariga oid bo'lib, bu sohadagi asosiy hujjat 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasidir.

Keyingi bosqich 1979 yilda BMT tomonidan Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'grisidagi konvensiyaning qabul qilinishi bo'ldi. Bu hujjatda uni ratifikasiya qilgan davlatlar uchun rioya etilishi shart bo'lgan huquqiy normalar belgilangan. Xotin-qizlar harakatiga keyingi 10 yilda ko'pchilik davlatlarning bu hujjatni ratifikasiya qilishga erishishi

uchun ko'p kuch kerak bo'ldi. Hozirgi kunga kelib bir yuz oltmishdan ortiq davlat bu konvensiyani ratifikasiya qilgan.

Konvensiyaning birinchi moddasida diskriminasiya tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: «.. har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada... har qanday farq, jinsiy belgilariga ko'ra istisno qilish, cheklash, tan olmaslik...». Keyingi moddalarda davlatlarning «xotin-qizlarning barcha sohalarda har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyotini ta'minlash» bo'yicha majburiyatlari sanab o'tilgan.

Konvensiyaga rioya etishga oid majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat olib borish BMTning Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish ko'mitasiga yuklangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu qo'mita BMT tizimida a'zolari faqatgina ayollar bo'lgan yagona organ hisoblanadi.

1993 yilda o'tkazilgan Vena konferensiyasida xotin-qizlar huquqlarini tasdiqlaydigan muhim hujjatlar qabul qilindi - bu Vena deklarasiyasi va Harakat dasturi. Bu hujjatlarda xususan shunday deyiladi: «Ayollar va qizlarning huquqlari umuminson huquqlarining ajralmas, bo'linmas va tarkibiy qismidir. Xotin-qizlarning siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy, mahalliy va xalqaro miqyosda to'la va teng ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek jinsiga ko'ra barcha turdagi kamsitishlarga barham berish xalqaro hamjamiyatning birlamchi maqsadlaridandir. Vena deklarasiyasi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik (ham ijtimoiy, ham shaxsiy hayotda) muammosini ham umuminson huquqlarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. 1993 yilning 20 sentyabrida Bosh Assambleya tomonidan Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklarasiyaning tasdiqlanishi ushbu faoliyat natijasi bo'ldi. Bu hujjatga muvofiq, gender asosidagi zo'ravonlik tushunchasi shaxsiy va ijtimoiy hayotda jismoniy, ruhiy, jinsiy (seksual) ziyon yetkazadigan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatni sodir etish, jumladan, qo'rqitish, majburlash, ozodligidan mahrum etishni o'z ichiga oladi. Bu tushuncha doirasiga xo'rlash, do'pposlash, jinsiy aloqaga majburlash, aqidalar va hokazolar kiradi.

Yana bir muhim voqyealardan biri BMTning xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha o'tkazilgan IV Butunjahon konferensiyasi bo'ldi (Pekin, 1995 yil). Unda ikkita hujjat qabul qilindi Pekin deklarasiyasi va Pekin harakat dasturi. Bu hujjatlarda shunday deyilgan: «Resurslarga bo'lgan teng huquq va imkoniyatlar, erkaklar va ayollar o'rtasida oilaviy majburiyatlarning teng taqsimlanishi va ular o'rtasida hamkorlikning mavjudligi ularning va oilalarining farovonligini hamda demokratiyani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega».

Pekin platformasining 118 bandida ta'kidlanganidek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik tarixiy asoslarga ega bo'lib, erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi tengsizlik muammosidan kelib chiqadi. Bu esa xotin-qizlarning erkaklar tomonidan xo'rlanishi va kamsitilishiga monelik qiladi. Ayrim shaxslar yoki davlat tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy yoki shaxsiy hayotda har qanday kamsitilishi - inson huquqlarining buzilishi demakdir, chunki, birinchi navbatda, xotin-qizlar huquqlari inson huquqlarining bevosita tarkibiy qismidir. Pekin uchrashuvining yakuniy rezolyusiyasida ta'kidlanganidek, davlatlar xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlariga barham berishga majbur va bu qonunchilikda o'z aksini topishi kerak. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning, jumladan oiladagi va boshqa turdagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha milliy rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Har yili mart oyida Nyu-Yorkda uchrashuv o'tkazadigan Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya Harakat platformasining amalga oshirilishi monitoringi bilan shug'ullanadi.

1996 yilning iyul oyida BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risida 1996 12-rezolyusiya qabul qilindi. Ushbu hujjatda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik oqibatida ijtimoiy va iqtisodiy sohada, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida ayrim shaxslar va jamiyat ko'radigan xarajatlar bo'yicha chuqur xavotir bildirilgan. 1997 yilning dekabrda BMTning «Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish maqsadida jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy

odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi rezolyusiyasi qabul qilindi.

Pekin konferensiyasidan so'ng xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga qarshi kurashish bo'yicha turli huquqiy normalar, tamoyillar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilib, hukumat institutlari va jamoat tashkilotlari hamkorligida o'tkaziladigan harakatlarning muhimligini har tomonlama tan oldi. Pekin Harakat platformasini monitoring qilishda asosiy rol 2000 yil Nyu-Yorkda o'tkazilgan «Pekin plyus besh» konferensiyasining tashkilotchisi bo'lgan YuNIFEM (BMTning xotin-qizlar masalalari bo'yicha xalqaro rivojlanish fondi) tashkilotiga tegishli.

YuNIFEM tomonidan ko'rilgan harakatlardan biri global elektron tarmog'ini va «Zo'ravonlikka yo'l yo'q» mavzuidagi munozara sahifasini yaratish hamda 1999 yil 8 martda Internetda global videokonferensiya tashkil qilish bo'ldi. Bu videokonferensiya o'tgan asrning so'nggi xalqaro xotin-qizlar kunida tashkil qilinib, unda butun dunyodagi xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati namoyish etildi.

Global tarmoqda o'z aksini topgan «Zo'ravonlikka yo'l yo'q» harakatining bir qismi 25 noyabrdan 10 dekabrgacha 16 kunlik faollikning o'tkazilishi bo'ldi. Kampaniya sanalarining tanlanishi xotin-qizlar ustidan zo'ravonlik va ularning o'z huquqlari uchun kurashi bilan bog'liq:

- 25 noyabr - Dominikan Respublikasida 1960 yilda diktatorlik rejimi tomoni-dan opa-singil Mirabellarning o'ldirilishini eslatib turadigan Xotin-kizlar ustidan zo'ravonlikka qarshi xalqaro kun;

- 1 dekabr - Butunjahon SPIDga qarshi kurashish kuni;

- 6 dekabr - Monrealda feministik harakat vakillari bo'lgan 14 nafar talabaning otib o'ldirilganligini eslatuvchi kun;

- 1948 yilning 10 dekabri - hukumatlar tomonidan insonning «irqi, jinsi va hokazolar bilan bog'liq hych qanday cheklovlarsiz yashash, erkinlik va xavfsizlik» huquqlari tan olingan kun.

«Jinsiga ko'ra zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik kurash harakati» kampaniyasining asosiy maksadlaridan biri - aholi e'tiborini ikki dolzarb muammoga - oiladagi zo'ravonlik va odam savdosiga qaratishdir. Ushbu harakat, shuningdek nodavlat tashkilotlari va davlat muassasalarining zo'ravonlikka qarshi faoliyatini, inson huquqlari himoyasi darajasini oshirish va jamiyatda «Io'qolsin zo'ravonlik» g'oyasiga asoslangan konsepsiyani shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

BMT doirasida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik muammolarini hal qilish vositasi sifatida ish ko'rayotgan quyidagi tuzilmalarni keltirish mumkin: Inson huquqlari bo'yicha BMT Oliy komissarining boshqarmasi, Qochoqlar bo'yicha BMT Oliy komissarining boshqarmasi, BMTning Xotin-qizlar rivojlanish fondi, xalqaro tashkilotlardan Aholishunoslik fondi, Bolalar fondi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki va boshqalar bu muammoga jiddiy yondashib, o'z yig'ilishlariga BMTning inson huquqlari bo'yicha tegishli qo'mitalarini, SEOAM, inson huquqlari, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha maxsus ma'ruzachilarni taklif qiladi.

1994 yil aprelida Shri-Lankalik Radika Kumarasvami xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik muammolari bo'yicha birinchi Maxsus ma'ruzachi bo'ldi. Bugungi kunda bu lavozimni Turkiyalik Yakin Erturk egallab turibdi. Maxsus ma'ruzachining vazifasi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq vaziyat monitoringini amalga oshirish va Jenevadagi inson huquqlari bo'yicha komissiyaga yillik ma'ruzani taqdim etishdan iborat.

BMT ning xotin-qizlar muammolari bo'yicha Birinchi umumjahon konferensiyasining (Mexiko, 1975 yil) 30-yilligini nishonlab, BMT Xotin-qizlar mavkei bo'yicha komissiyasi 2005 yil 28 fevraldan 11 martgacha Pekin harakat platformasining (Pekin+10) 10 yillik tahlilini amalga oshirdi. Delegatlari soni va darajasi bo'yicha misli ko'rilmagan ushbu anjumanda taxminan 80 vazir, BMT a'zolari bo'lgan 165 davlat hukumatlarining 1800 dan ortik vakili, 7 davlat va hukumat boshlig'ining rafikalari, shuningdek dunyoning barcha hududlaridagi

nodavlat tashkilotlarining 2600 dan ortik vakillari katnashdi. Qatnashchilarning bunday yukori darajasi 10 yillik tahlilning jahon hamjamiyatida katta kiziqish uyg'otganligidan dalolatdir. Uchrashuvning muhim jihatlaridan biri - turli dolzarb mavzularning - harbiy nizo hududlarda xotin-kizlarning og'ir holatidan tortib to gender masalalari, xotin-qizlar savdosi, xotin-qizlar sog'ligini saklash, OIV, OITS ga qarshi kurash va hokazolarning yoshlar tomonidan muhokama kilinishi bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, xotin-kizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish masalalari xalkaro miqyosdagi siyosat maydonida millatlararo andozalarni va ularga amal qilish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini shakllantirish orkali o'z aksini topgan. Dunyoda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik inson huquqlarining davlat aralashuvini talab kiladigan jarayon, deb karaladi.

Shunga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik uchun davlatning mas'uliyati tushunchasi ham o'zgardi. Agar avval davlat faqat kam sonli millatlar, qamoqdagilar va hokazolar hukuqlarining rioya etilishi uchun mas'ul deb hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda tugal ishtirokchilik tamoyili qo'llaniladi: davlat tomonidan inson huquklarining, jumladan xususiy sohada buzilishining doimiy ravishda oldini olish yoki bartaraf etish. Bu tendensiyaning tasdiqlanishi davlat zimmasiga nafaqat o'z fuqarolari oldida, balki xalqaro hamjamiyat va hukuk oldida ham yuksak mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari va ko'rinishlariga qarshi kurashni nazarda tutadigan bir qator xalqaro shartnomalarni ratifikasiya qilgan. Bular - Xotin-qizlar hukuqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Bola hukuqlari to'g'risidagi konvensiya va boshka xalqaro-hukukiy aktlardir.

Tabiiyki, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun faqat xalqaro miqyosdagi hukukiy talablarning belgilanishi yetarli emas. Bu masalaning yechimi ko'p jihatdan qonunchilik darajasida mustahkamlangan samarali hukuqni qo'llash faoliyatiga bog'liq.

Bunda, albatta, oiladagi zo'ravonlik nafakat milliy, balki universal, umumiy holat ekanligini ham hisobga olish lozim. Bunday zo'ravonlik istisnosiz barcha davlatda, ularning jamiyat va davlat tuzilishidan qat'iy nazar, turli ko'rinish va shakllarda mavjud.

Bundan tashkari, oxirgi muddatgacha u mustakil hukuqiy institut sifatida e'tirof etilmagan edi. Masalan, o'tgan asrning 80-yillariga kadar dunyoning 102 davlatidagi qonunchilikda oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan, 52 mamlakatda esa er-xotinning zo'ravonligi jinoiy jazoga tortilmas edi¹. O'tgan asrning 90-yillariga kelib bu holat o'zgarib boshladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunga kelib dunyoda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha maxsus qonunlarga ega davlatlar soni ortib bormoqda. Bunda ilgari qabul qilingan qonunlarga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar emas, balki mustaqil qonunlarning mavjudligi nazarda tutilmoqda. Bunday qonunchilikning zarurati 1995 yil Pekinda o'tkazilgan Butunjahon xotin-qizlar konferensiyasida qabul qilingan «Xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha harakat platformasi»da ta'kidlangan. Bu hujjatda butun dunyo hukumatlariga «ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etayotgan shaxslarga qaratilgan qonunchilikni qabul qilish va hayotga tatbiq etish» tavsiya qilingan.

Bugungi kunda oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha AQShda, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Trinidad va Tabagoda maxsus qonunlar qabul qilingan. Yana shunisi ahamiyatliki, musulmon davlatlari bo'lgan Malayziya va Turkiyada ham bunday qonunlar mavjud.

XX asrning 90-yillarida ko'plab davlatlar oiladagi zo'ravonlikka oid maxsus qonunchilik aktlarini qabul qildiki, ularda oiladagi zo'ravonlikning barcha shakllariga qarshi kurash siyosatini shakllantirishga doir aniq qoidalar aks ettirilgan.

¹ БМТ Бош Котибининг гендер масалалар бўйича маслаҳатчиси Рашел Майанджанинг маълумоти.

Bugungi kunda oiladagi zo'rvonlikka qarshi qaratilgan qonunlar 47 davlatda mavjud. Ba'zi davlatlar jabrlanganlarni dastlabki himoya bilan ta'minlaydigan fuqarolik huquqi bilan chegaralansa, boshqa davlatlar esa bu himoyani yanada kengaytirgan. Ba'zi davlatlar esa fuqarolik va jinoyat ishlarini uzviylikda ko'radi. Ko'pchilik davlatlar jinoiy harakatlarning yangi tarkibini belgilab, uy-oilada sodir etiladigan zug'umlar talqinini o'zgartirdi. Ko'pchilik davlatlarda, masalan, Finlyandiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Germaniyada oiladagi zo'rvonlik jinoyat deb hisoblanadi. Ba'zi davlatlar «qonunlar integrasiyasi» yo'lidan borib, unda qonun chiqaruvchi hokimiyat va davlat tuzilmalarining qonun bilan belgilangan davlat tomonidan moliyalash tizimida oiladagi zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha ijtimoiy xizmatlar yaratish va dasturlar tashkil qilishda mas'ul ekanligi ta'kidlangan.

Oiladagi zo'rvonlik to'g'risida 2005 yilda qonun qabul qilgan Yevropaning eng oxirgi davlati Ispaniya bo'ldi.

Oiladagi zo'rvonlikni oldini olish bo'yicha to'plangan eng katta ijobiy tajriba Kanadadadir. Kanada - oiladagi zo'rvonlikni bartaraf etish bo'yicha siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetakchi davlat, deb tan olingan. U bunday jaholatga qarshi yo'naltirilgan federal va hududiy qonunlari, mahalliy miqyosdagi ijtimoiy dasturlari bilan mashhur.

Kanadada xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik bo'yicha maxsus federal qonun mavjud emas. Shunga qaramay, 1994 yildan boshlab Jinoyat kodeksiga ayollar va bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilishga qaratilgan choralar tizimini nazarda tutadigan qo'shimchalar (tuzatishlar) kiritilgan. S-127 qonun loyihasi Jinoyat kodeksining bir qismiga aylanib, unda nomusga tegish jinoyatini «Jinsiy huquqbuzarliklar, ijtimoiy ahloq va jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar» qismidan olib, «Shaxs va uning sha'niga qarshi huquqbuzarliklar» qismiga o'tkazish nazarda tutilgan.

III BOB. MUSTAQILLIK SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING GENDER MUAMMOLARI

III.1. O'zbekistonda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni yanada yuksaltirish to'g'risida g'amxo'rlikning tobora ortib borishi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'tgan 23 yil mobaynida inson huquqlariga oid 69 xalqaro-huquqiy akti (jumladan, BMTning oltita I asosiy konvensiyaviy hujjatini) ratifikasiya qildi. Ularning aksariyati xotin - qizlarning huquq va asosiy erkinliklarini ta'minlash masalalariga daxldordir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati Qo'mitaga Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi yuzasidan uch marta milliy davriy ma'ruzasini taqdim etdi. Shundan so'nggisi 2008 yilning avgust oyida topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi SEDAW Konvensiyasini ratifikasiya qilganidan so'ng ushbu hujjatda o'z aksini topgan huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan bir qator milliy mexanizmlarni ishlab chiqdi. Onalik va bolalikni huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoyalash, xotin-qizlarning moddiy ahvolini tag'in ham yuksaltirish, jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilishda xotin-qizlar ishtirokini yanada kengaytirish uchun yaratilgan barcha sharoitni izchil takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

O'zbekiston Respublikasining tegishli konunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, davlat dasturlari xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavqeyini yanada yaxshilashga qaratilgandir. Bugungi kunda O'zbekistonda xotii-kizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning qonuniy asoslari yaratilgan hamda xotin-qizlar huquqlari himoyasining institusional tizimi shakllanganini qat'iy ishonch bilan aytish mumkin. BMTning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga binoan milliy qonunchilikni isloh qilish bo'yicha bergan tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan respublikada xotin-kizlarni bevosita va

bilvosita kamsitishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan zarur choralar ko'rilmokda. Mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati darajasida xotin-qizlarning mavqeini yanada mustahkamlashga doir milliy mexanizmlar izchil takomillashtirib borilmoqda, shuningdek, Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalari asosida davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosati hisoboti va monitoringi milliy mexanizmi ishlab chiqilib, faol amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2006 yilda O'zbekiston tomonidan ikkinchi va uchinchi qo'shma ma'ruzalar taqdim etilganidan so'ng Qo'mita hukumatga o'zining Yakuniy tavsiyalarini yubordi. Unda Qo'mita tomonidan quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan:

1. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning oldini olish bo'yicha qonunchilik islohotlarida rivojlanishning pastligi;

2. Sudlar qarorlarida Konvensiya qoidalari haqida ma'lumotlarning kamligi huquqni muhofaza qilish organlarining Konvensiya qoidalari va Qo'mitaning umumiy tavsiyalarini yaxshi bilmasligidan dalolat beradi;

3. Xotin-qizlar qo'mitasining tegishli darajasidagi mavqyega ega emasligi (hukumat tuzilmalariga ta'siri masalalarida) va davlat mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng o'zbek xotin-qizlari holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim nodavlat tashkilotlari faoliyatining tugatilishi;

4. Xotin-qizlar va erkaklarning oila va jamiyatdagi roli va majburiyatlariga nisbatan shakllangan patriarxal munosabatlarning va noto'g'ri salbiy fikrlarning (aqidalarning) saqlanib qolgani;

5. Oilalarda zo'ravonlikning mavjudligi, xotin-qizlarni himoya qiladigan aniq bir qonunning yo'qligi, zo'ravonlik sodir etgan aybdor shaxslarning ta'qib etilmasligi va jazosiz qolishi;

6. Siyosat va davlat tizimida hamda barcha sohalardagi boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlarning nisbatan kamligi;

7. Xotin-qizlar va bolalar savdosi hamda mehnatidan foydalanishga barham berilmaganligi;

8. Odam savdosidan jabrlanganlar himoyasining talablar darajasida emasligi;

9. Mehnat bozorida jinsiy kamsitishga to'la barham berilmaganligi va oqibatda xotin-qizlarning nisbatan kamroq ish xaki olishi;

10. Viloyatlarda yashovchi qishlok xotin-qizlarining ahvoriga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi, yer egalari bo'lgan mulkdor xotin-qizlarning kamligi;

11. Balog'otga yetmaganlar o'rtasida nikohdan o'tganlar mavjudligi.

Ushbu tavsiyalarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash, shuningdek xotin-qizlarni oilada sodir etiladigan zo'ravonliklardan himoya qilish. Siyosiy-huquqiy vaziyat aynan mana shu mantiq asosida tahlil qilinib, tegishli xulosalar va uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berilmog'i kerak.

BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan «O'zbekistonda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun huquqiy va tashkiliy (institusional) salohiyatni rivojlantirish» loyihasi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va Huquqiy masalalarni o'rganish markazi ko'magida tayyorlandi.

2007 yili Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo'mitasining tavsiyalarini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejasining qabul qilinishi xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan batafsil tadqiqotlar o'tkazish, jamiyat

hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning chet el va O'zbekiston tajribasini o'rganish, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan sabab va oqibatlarni aniqlashni kun tartibidan chiqarish uchun asos bo'la olmaydi.

Mazkur tadqiqotning umumiy maqsadi - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya nuqtai nazaridan tahlil qilish va amalda qo'llanilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va hal etishga doir takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo'mitasining Yakuniy tavsiyalarida aks ettirilgan masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarini taminlaydigan xalqaro andozalar va qoidalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan quyidagi xalqaro-huquqiy aktlarning chukur tahliliga asoslangan: Inson huquqlari umumjaxoni deklarasiyasi (1948 yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 yil Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (1949 yil), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1952 yil), Oilali ayolning fuqaroligi to'g'risidagi konvensiya (1957 yil) Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979 yil), Pekin deklarasiyasi va Harakat platformasi (1995 yil).

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining quyidagi qonunchilik aktlari tahlil qilindi: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida», «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatning modernizasiya qilishida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishi to'g'risida»gi konstitusiyaviy qonunlari, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari

viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida», «O'zbekistoni Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatining va Oliy Majlis Senati a'zosining maqomi to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida», «Joylardagi davlat hokimiyati to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida», «Sudlar to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida», «Ijtimoiy jamg'armalar to'g'risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Fuqarolik-prosessual, Oila, Soliq, Mehnat, Jinoyat, Jinoyat-prosessual, Ma'muriy javobgarlik kodekslari, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida», «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida», «Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida», «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunlari.

Tadqiqotning maqsadi uning tuzilishini belgilab berdi. Tuzilishiga ko'ra ushbu tadqiqot ishi uning dolzarbligini ochib beradigan kirish va uch bobdan iborat. Birinchi bob xotin-qizlarning siyosiy huquqlariga bag'ishlangan. Ikkinchi bobda ularning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari tahlil qilinadi, uchinchi bobda esa oilada xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, mamlakat oldida bu borada turgan muxim masalalardan biri xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy mavkeini yanada oshirishdan iboratdir.

O'zbekistonda 13 millionga yaqin xotin-qiz istiqomat qiladi. Ulardan 60 foizi-kishlokda yashaydi va mehnatga layoqatli xotin-qizlarning qariyb 50 foizi ish bilan band.

2005 yilning yanvar oyidan boshlab parlamentdagi xotin-qizlar guruhi fukarolik forumlari ishida faol ishtirok etib, parlament a'zolarining gender

sezgirligini oshirish bo'yicha ish yuritmoqdalar, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng hukuk va imkoniyatlarga doir kafolatlar to'g'risida»gi qonunni kabul qilishni, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni isloh etish taklifi bilan chiqmoqdalar.

Hozir mamlakat parlamentining Qonunchilik palatasida xotin-qizlar 18 foizni, Senatida 15 foizni tashkil etadi. 2000 yilda ushbu raqam 8,2 foizdan oshmas edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va malakali kadrlarga ehtiyojning oshishi davrida, ishlab chikarishning texnik jihatdan takomillashib borishi va yangi tarmoqlarning paydo bo'lishini hisobga olib, mehnat bozoriga xotin-qizlarni keng jalb qilish uchun ularni o'qitish va malakasini muttasil oshirib borish talab qilinadi. Ushbu maqsadga erishishda izchillik bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi xoti muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatdagi 64 ming tadbirkordan 20 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Kichik va o'rta korxonalariga mansub 8 ming xo'jalik subyektini xotii qizlar boshqarmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning turmush darajasini yanada yuksaltirishga qaratilgan bir qator qonunlar va qonunosti aktlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasiga binoan «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib ko'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart».

O'zbekiston Konstitusiyasining 46-moddasida jamiyatning barcha sohalarida xotin - qizlar va erkaklarning teng huquqliligi mustahkamlab ko'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasida «Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar», deb alohida qayd etilgan. «Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar». (19-modda).

Shuningdek, Jinoyat kodeksi ham xotin-qizlar huquqlarini buzish yoki cheklashni taqiqlaydi. Masalan, 104, 105, 118, 119, 121-moddalarda badanga shikast yetkazganlik uchun, nomusga tegish, xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayri tabiiy usulda qondirishga majbur etganlik uchun javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 148-moddasiga muvofiq ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatganlik uchun ishga olish huquqiga ega mansabdor shaxslar eng kam ish haqining yigirma besh baravari miqdorida jarima to'lashga yoki uch yilgacha bo'lgan muddatga muayyan huquqlardan mahrum etish yohud ahloq tuzatish ishlariga - jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va bo'limlarining roli quyidagilardan iborat:

- xotin-qizlar holatiga doir fikrlar va sharoitlarni aks ettiradigan siyosatni belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirishda hukumat uchun asosli maslahatlar taqdim etish maqsadida hamkorlik qilish;
- xotin-qizlar muammolari bilan shug'ullanadigan guruh, tashkilot, birlashmalar va xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlarining maslahatlari asosida xotin-qizlarning turli-tuman fikrlari ifodachisi bo'lish;
- hukumat va xotin-qizlar sektori o'rtasida axborot almashinuvi jarayonida vositachi sifatida faoliyat yuritish;
- tegishli sohalar uchun o'tkaziladigan va tashkilotlar uchun qiziqish uyg'otadigan siyosatni tahlil qilish;

- O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hududiy bo'limlarining vazifa va majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydigan samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi davlat va jamoat tashkilotlari hamda NNTlari bilan hamkorlikda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlari to'g'risida»gi qonun loyihasini tayyorladi. Bu loyiha milliy va xalqaro ekspertizadan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun yuborildi.

«Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, davlat ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni qo'shimcha kafolatlar bilan ta'minlaydi.

Ko'p bolali ayollarni va nogiron ayollarni kasanachilik mehnatiga jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'tgan 55 yil davomida parlamenti bo'lgan suveren davlatlar soni yetti baravar ko'paydi. Xotin-qiz parlamentariylar soni esa bu davrda bor yo'g'i to'rt baravar oshdi. 1945 yili 26 ta parlament bo'lib, undagi xotin-qizlar soni 3 foizni tashkil qilgan. 1995 yilga kelib 176 parlament tashkil etilib, ularda ayollar 11,6 foizga, senatorlar orasida esa 9,4 foizga yetdi. Shuni ta'kidlash kerakki, xotin qiz-parlamentariylarning eng ko'p soni 1988 yilda kuzatildi, bunda ularning soni sh 14,8 foizni tashkil etgan¹.

Siyosiy qarorlar qabul qiladigan organlarda, avvalo, parlamentda xotin-qizlar sonining ortishi bevosita shu davlat saylov tizimining shakliga bog'liq. Ko'pchilik rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng asoslarda siyosiy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini amalga oshirishning eng qulay usullaridan biri proporsional saylov tizimini joriy etishdir. Bunda vakillik organidagi joylar turli

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси: 1993 й 9-сон. 338-м.

partiyalardan yig'ilgan ovozlarni ro'yxatiga mos ravishda taqsimlanadi. Xotin-qizlar uchun har bir hududdan bitta deputat saylanadigan majoritar saylov tizimi nisbatan samarasiz hisoblanadi.

Bunday holatning sababi oddiy. U jamiyat va huquqiy davlat tuzilishining demokratik asoslarini yaratishda ko'ppartiyaviylikka asoslanishiga borib taqaladi. Bunda gender tengligini ta'minlashda an'anaviy rolni so'l partiyalar o'ynaydi. Ular ko'pchilik hollarda, birinchidan, ikkala jins vakillarining amaldagi teng huquqliligiga erishish tamoyillarini o'z nizomlarida belgilaydi, ikkinchidan, xotin-qizlar partiyaga rahbarlik qilishi, saylovlarda o'z nomzodlarini ko'rsatishida kvotalar ajratadi.

G'arbiy Germaniyada sosial-demokratik partiya 1995 yildagi saylovlardan keyin nafaqat eng ko'p sonli partiya «yashillardan» keyin, balki eng ko'p xotin-qiz a'zosi (27%) bo'lgan partiya bo'lib qolganining boisi ham shunda.

Mutaxassislar bunday sharoitda Bundestag so'l partiyalari fraksiyalarida va joylardagi parlamentlarda xotin-qiz-deputatlar sonining ortganligini kuzatganlar.

BMTga a'zo 192 davlatdan 182 tasida parlament mavjud.

Dunyo parlamentlarining 9 tasida xotin-qiz-deputatlar yo'q, 173 mamlakat parlamenti-da ayollar vakila qilib ko'rsatilgan, shundan:

- 83 mamlakatda kvotalardan foydalanadi,
- yana 15 mamlakatda kvotalardan avval foydalanilgan yoki taklif etilgan.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunlarida ikkala jins uchun ham teng saylov andozalari belgilangan erkaklar va xotin-qizlar saylov jarayonida teng huquqlidir.

Xotin-qizlar va erkaklarning amaldagi tengligi siyosiy, tashkiliy, moddiy, ijtimoiy ahloqiy va huquqiy vositalaridan iborat kafolatlar tizimi orqali

ta'minlanadi. Siyosiy bino kafolatlar - O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mustahkamlangan demokratik saylovlarning asosiy tamoyil va andozalaridir. Tashkiliy kafolatlar-jinsidan qat'iy nazar barcha deputatlikka nomzodlar uchun saylovoldi kampaniyasini o'tkazishda hamkorlik ko'rsatishga doir qoidalardir. Ijtimoiy-ahloqiy kafolatlar - huquq va erkinliklarni to'g'ri tushunish hamda ularning xotin-qizlar va erkaklar tomonidan foydalanilishidir¹.

Afsuski, O'zbekistonda siyosiy partiyalar tomonidan nomzodi ko'rsatilgan xotin-qizlarni siyosiy partiyalar, xotin-qizlar NNTlari va xotin-qizlar elektorati tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi hali yetarlicha shakllanmagan. Siyosiy partiyalarda xotin-qiz yetakchilarga nisbatan hurmat-e'tibor ko'rsatish madaniyati to'la qaror topmagan, siyosiy partiyalar tomonidan yaratilgan tizimlar doirasida rahbar lavozimlarga tavsiya etish amalda kutilgan darajada ish bermayotir.

Xotin-qizlarning parlament saylovida faol ishtirok etishiga monelik qiladigan sabablardan yana biri, asrlar davomida shakllangan «xotin kishi ro'zg'origa qarasin» qabilidagi aqidalar bo'lib, bunday qarashlar xotin-qizlarning deputatlikka nomzodlar safidan joy ololmasligiga avval-boshdan sabab bo'ladi.

Ijro hokimiyatning o'ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, uning asosida va faoliyat yuritishida mazkur organlarning vertikallik tamoyili va ushbu tamoyilga binoan bo'ysunishga amal qilingandagina ushbu hokimiyat samarali faoliyat ko'rsata oladi. Bunday talab har bir davlat uchun dolzarbdir. Ijro hokimiyati organlarida xotin-qizlarning roli va o'rnini muammosi turli davlatlar aholi tushunchasida hukumat, shuningdek, muayyan vazirliklar boshida turgan xotin-qizlar va erkaklar shaxsi bilan bog'liqlik holda shakllanishining boisi ham shunda.

O'zbekistonda keyingi paytlarda xotin-qizlarning ijro hokimiyati organlaridagi sonini oshirishga qaratilgan izchil harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, oxirgi paytda ijro hokimiyati organlari darahbarlik lavozimlarini 15 foiz

¹ Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

xotin-qiz egallagan, ya'ni: Vazirlar Mahkamasida - 16,7 foiz; Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashida - 12,5 foiz; viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi o'rinbosari lavozimida - 11,9 foiz.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining raisi ayni paytda Bosh vazirning o'rinbosari bo'lib, viloyat xotin-qizlar qo'mitalarining raislari tegishli hudud hokimlarining o'rinbosari hisoblanadilar. (14 viloyat, 219 tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlari).

Yana shuni ta'kidlash lozimki, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida erkaklar va xotin-qizlarning fikrini teng inobatga olishning foydali va ustuvor masala ekaniga oid ijtimoiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan tushunchasini mustahkamlash borasidagi ishlar ham yanada samaraliroq yuritilmog'i lozim.

Sud hokimiyatiga oid holatdagi muammo ikki xil sharoit bilan izohlanadi. Birinchidan, rivojlangan davlatlarda sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari eng ko'p haq to'lanadigan xizmatchilar jumlasidan joy olgan, shuning uchun bu sohada erkaklar bilan xotin-qizlar o'rtasida ish joyi uchun raqobat kuchli. Ikkinchidan, qator davlatlarda (Isroil va musulmon davlatlarida) dinga asoslangan sudlar amal qiladi, ularda xotin-qizlarga odil sudlovni amalga oshirishi uchun imkoniyati berilmaydi¹.

Sudya, advokat, prokuror, maslahatchi yurist va umuman yurist bo'lib ishlash uchun maxsus ta'lim olish kerak. Shu nuqtai nazardan huquqni shartli ravishda genderni nisbatan neytral mutaxassisliklar jumlasiga kiritish mumkin. Bu esa yuridik oliy o'quv yurtlari va fakultetlariga kirayotgan yigit va qizlar sonining taxminan bir xil demakdir. Muammolar esa ishga kirish paytida vujudga keladi, chunki ko'pchilik hollarda ishga kirish uchun mehnat staji kerak bo'ladi, bundan tashqari qizlarning ona bo'lish ehtimoli sababli ularga ishonarli xodim sifatida qaralmaydi. Bunga o'xshash holatlar rivojlangan xorijiy davlatlarda ham ko'p kuzatiladi.

¹ Ўзбекистонда Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008.

Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Pekinda o'tgan IV Xalqaro konferensiya qarorlarida iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida, jumladan, moliyaviy, byudjet, tijorat va boshqa turdagi iqtisodiy siyosatni, shuningdek soliq va ish haqini tartibga soladigan me'yorlar tizimiga doir siyosatni ishlab chiqishda xotin-qizlarning deyarli ishtirok etmasligi katta xavotir bilan ta'kidlangan edi. Qayd etilganlardan tashqari barcha korporatsiyalar, jumladan transmilliy korporatsiyalar tomonidan milliy qonunlar va kodekslar, ijtimoiy sug'urta sohasidagi me'yorlar, xalqaro bitimlar va konvensiyalarga amal qilishni ta'minlash; xotin-qizlarning siyosatga, iqtisodiyot va moliya vazirliklari tomonidan ishlab chiqilayotgan dasturlarga o'z hissalarini qo'shishi uchun yo'naltirilgan mexanizmlarni yaratish; makro va mikroiqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarishda gender tahlili uslublaridan foydalanish va bu siyosatning oqibatlarini hisobga olish tavsiya qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatga oid tashabbuslar va ularni, jumladan, iqtisodiy sabablarga ko'ra milliy tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va xotin-qizlar jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash (byudjet va turli iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni tayyorlash asnosida) haqida so'z borishi kerak. O'z navbatida, bu nafaqat tegishli davlat organlari rahbarlari, balki xususiy tadbirkorlarni va kasaba uyushmalari sardorlaridan ham gender tengligini hisobga olishni talab qiladi. Qariyb butun dunyoda tadbirkorlikda ham, kasaba uyushmalarida ham erkaklarning qo'li balanddir. Xususan, AQShning yuzta yirik kompaniyasi kengashining 1315 nafar a'zosidan 7,5 foizini va yirik kasaba uyushmalari rahbarlarining esa 11,5 foizinigina xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yangi asr boshida erkaklar va xotin-qizlarning nisbati 56 va 44 foizni tashkil qilgan edi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faollik darajasi erkaklarnikidan past. Xotin-qizlar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, fan kabi yo'nalishlar an'anaviy mehnat sohalariga aylangan.

2007 yili iqtisodiyotning turli sohalarida 46 foiz xotin-qiz faoliyat yuritardi edi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida band bo'lgan xotin-qizlarning soni 4 millionni tashkil qiladi, ularning faolligi erkaklarnikidan 15,8 foiz kam.

[Kredit olgan tadbirkor xotin-qizlar soni 1991 yil 2 foizdan 2007 yil 25 foizgacha oshdi. O'zbekistonda har yil i 400 mingdan ortik ish o'rni ochilib, ularning 40 foizdan ko'progi xotin-qizlarga mo'ljallanadi.

O'zbekiston tadbirkor ayollar assosiasiyasi tomonidan xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan «Biznesni qanday boshlash kerak», «Bienes plani qanday tuzish kerak», «Marketing asoslari», «Ayol va jamiyat», «Kichik va o'rta biznes», «Ayollar va ularning huquqlari» kabi mavzularda treninglar o'tkaziladi. 2006 yil ana shunday treninglarda 7500 xotin-qiz qatnashib, ulardan 1000 nafari o'z shaxsiy ishini ochdi. To'rt yuzdan ortiq xotin-qiz mahalliy kasb-hunar va hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bo'yicha ta'lim oldi.

Biroq, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan barcha chora-tadbirlar, davlat sektorida ishlaydigan xotin-qizlarga bo'lgani kabi, nodavlat sektorda ishlaydigan xotin-qizlarga ham taalluqlidir degan tushuncha hali to'la shakllangan emas.

III.2. O'zbekistonda gender tenglik g'oyalarini ilgari surilishida xotin-qizlar tashkilotlarining nufuzini yuksalib borishi.

Gender tengligi to'g'risidagi konstitusiyaviy qoidalarni amalga oshirish kafolatlarini yaratish maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlariga oid qonunni qabul qilishni tezlashtirish zarur. Qonun loyihasining asosiy vazifasi - jinsiy kamsitishlarga barham berishga qaratilgan, xotin-qizlar va erkaklar teng hukukliligini ta'minlaydigan davlat syosatining asosiy yunalishlarini yanada aniqlab belgilab olishdan iborat.

- jinslar tengligini ta'minlaydigan hukukiy bazani shakllantirish, bu soxddagi qonunchilikni takomillashtirish va rivojlantirish;

- davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ huquqiy hujjatlarni gender nuqtai nazaridan ekspertiza qilish;

- jinsiy kamsitishni bartaraf etish maqsadida maxsus dasturlarni qabul qilish va amalga oshirish;

- jinslar tengligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan umumdavlat dasturlariga va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish;

- erkaklar va xotin-qizlar tengligi madaniyatini tarbiyalash va targ'ib qilish, fuqarolarni jinsiy kamsitishga qaratilgan, zo'ravonlik, shafqatsizlik, pornogra-fiya, giyohvandlik, ichkilikbozlik va boshqalarni tarqatadigan ma'lumotlardan jamiyatni himoyalash;

- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish.

Qonun teng huquq va teng imkoniyatlar kafolatlarini hamda erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq va teng imkoniyatlarini ta'minlash mexanizmlarini o'zida aks ettirishi kerak. Uning qabul qilinishi gender tengligini amalda ilgari surish uchun zarur qonuniy asos bo'lishi mumkin.

Gender yo'nalishidagi qonunchilikni takomillashtirishning asosiy bosqichlari to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish uchun erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq va teng imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan Qonunchilik faoliyati konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Unda quyidagi choralarni nazarda tutish kerak:

- qonunda qo'mitalar, komissiyalar, kengashlar, prezidiumlar va davlat xizmati tizimidagi boshqa rahbar organlarni shakllantirishda aholi tarkibiga mos muvozanatda erkaklar va xotin-qizlar sonining nisbatiga rioya qilish tavsiya qilingan qoidalarni belgilash;

- afzallikka asosan ko'rib chiqish tamoyilidan foydalanish, ya'ni tayinlanadigan davlat lavozimiga tavsiya qilingan erkak va xotin-qizlar nomzodlarining o'tkazilgan konkurs natijalari teng kelgan holatda vakil kam bo'lgan tomonga afzallik berish;

- davlat kadrlar siyosati konsepsiyasini ishlab chiqishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining boshqaruvning o'rta bo'g'ini lavozimlarida xotin-qizlar sonini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksiga e'tibor qaratish. Bu xotin-qizlarning xizmat lavozimidan keyingi ko'tarilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha davlat siyosatining istiqboldagi yo'nalishlarshi belgilab olish uchun O'zbekiston Respublikasida 2009-2015 yillarga mo'ljallangsh gender tengligi strategiyasini ishlab chiqish zarur. Bu strategiya qonunchilik, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisod, sog'liqni saqlash, xotin-qizlar va bolalalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash, odam savdosi, informasion siyosat, madaniyat, fan, ta'lim sohalarida gender tengligiga erishishga oid tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Davlatning xotin-qizlar borasida aniq maqsadga qaratilgan siyosati alohida yo'nalishga ega bo'lishi kerak, chunki xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rne va mavqeyi bilan bog'liq o'ziga xos masalalar mavjud bo'lib, ularning turli xil fikr va

manfaatlarini amalga oshirish va inobatga olish zarurdir. Bu masalani kompleks yondashuv asosida hal qilish kerak. Yevropa Ittifoqi mutaxassislarining fikri 23 cha, bunday yondashuv, eng avvalo, mazkur siyosatni amalga oshirishga jalb etilgani shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonini tashkil qilish (qayta tashkil qilish), yaxshilash, takomillashtirish va baholashdan iborat. Bunda erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi tenglik masalasini barcha sohaga singdirish lozim.

Davlat statistika qo'mitasining vazifalari jumlasiga hokimiyatning turli bo'g'inlarida va jamiyat hayotining barcha sohalarida rahbarlik lavozimlarini egallab turgan xotin-qizlar va erkaklarning soniga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ib borish funksiyasini ham kiritish lozim.

Hokimiyatning vakillik organlariga saylovlarda xotin-qizlarning ishtirok etishi uchun yanada qulay sharoit yaratadigan saylov tizimini rivojlantirish maqsadida saylov qonunchiligini tag'in ham takomillashtirish kerak.

Siyosiy partiyalar o'z nizomlariga xotin-qizlarni siyosiy faoliyatga tayyorlab borish maqsadida markazdagi va joylardagi siyosiy partiyalar rahbariyati tarkibiga xotin-qizlar bo'lishini nazarda tutadigan tegishli qoidalarni kiritishi lozim.

Gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning qonun chiqaruvchi hokimiyat organlaridagi vakilligi darajasini oshirish maqsadida xotin-qizlar tashkilotlari o'rtasida hamda «xotin-qizlarni masalalari»ga e'tibor qaratadigan siyosiy partiyalar bilan o'zaro ta'sir va hamkorlik tizimini yaratish zarur.

Xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi aholini ijtimoiy himoyalash, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya va boshqa sohalarda ularning o'z siyosiy manfaatlarini anglashi va ularni shakllantirishini taqazo qiladi. Aynan mana shu sohalarda xotin-qizlar erkaklar bilan teng va ular kabi layokatli, bilimli va xabardor bo'lishlari kerak.

NNTlari xotin-qizlarning siyosat maydonida faol ish yuritishiga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir. Bunday tashkilotlarning faoliyati hokimiyat

organlariga saylash va tayinlashga munosib xotin-qizlarni tayyorlash, siyosatchi chiqishi mumkin xotin-qizlarga oid ma'lumotlar manbaini shakllantirish, saylovoldi kurashlari davrida xotin-qizlarning kuchini birlashtirishdan iboratdir.

Nomzodlar plyuralizmi tamoyilini, shuningdek turli jins va yoshdagi nomzodlar ishtirokini ta'minlash maqsadida rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovlar tizimini keng joriy etishga qaratilgan harakat kompleksini ishlab chiqish, xizmatchi xotin-qizlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yaratish, turli miqyosdagi boshqaruv organlarida ishlash uchun xotin-qizlarning kadrlar rezervini shakllantirish lozim. Bunday ishlarga misol sifatida, avvalambor, Finlyandiyani keltirish mumkin. Finlyandiyada barcha boshqaruv tuzilmalarida pastdan yuqoriga kadar gender tengligini ta'minlashning besh yillik va yillik rejalari mavjud bo'lib, ularning bajarilishi vakolatli davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi¹.

Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish, boshqaruvning eng maqbul modelini ishlab chiqish bo'yicha hokimiyatning davlat organlari va ko'p sonli xotin-qizlar tashkilotlarining o'zaro hamkorlik mexanizmining takomillashtirilishi talab qilinadi. Hamkorlikning turli shakllaridan davra suhbatlari, maslahat kengashlari, komissiyalar, seminarlar, ijtimoiy buyurtmalar, qonun loyihalari ekspertizasi va boshqalardan samarali foydalanish zarur.

Xotin-qizlar NNTlarining inson huquqlari bo'yicha BMTning tegishli xalqaro konvensiyalari, xususan Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasining bajarilishi yuzasidan milliy ma'ruzalarni tayyorlash va ko'rib chiqishda keng ishtirok etishini ta'minlash; Uzbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining BMTning tegishli qo'mitasida O'zbekistonning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqishda ishtirok etishini ta'minlash;

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси: 1993 й. 9-сон 338-м.; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси: 1995 й. 12-сон 269-м.; 1997 й. 4-5-сон 126-м., 1998 й. 9-сон 181-м., 1999 й. 5-сон 112-м., 2001 й. 5-сон 89-м., 2002 й. 4-5-сон 114-м. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси: 2005 й. 5-сон 151-м.

Sud tizimida gender tengligini ta'minlash maqsadida sudyalarni tayinlashda (saylashda) ham xotin-qizlar uchun joylarni kvotalash tizimini shakllantirish lozim.

Xotin-qizlarni siyosiy davlat faoliyati va boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun tayyorlash bo'yicha maxsus markaz tashkil qilish va bu markaz tomonidan quyidagilarni amalga oshirish: xotin-qizlar orasidan yetakchilarni tanlashni tashkil qilish, ularni tanlash va baholash uslublarini takomillashtirish, ularning yuqori lavozimlarga ko'tarilishiga doir strategiyani yaratish, ayol-siyosatchining ijobiy imidjini shakllantirish, saylov qonunchiligi tahlilini o'z ichiga olgan, qonun chikaruvchi va ijro hokimiyati organlariga nomzodi ko'rsatilgan xotin-qizlarni o'qitishning tegishli dasturlarini ishlab chiqish, eng yangi saylov texnologiyalarini o'zlashtirish, saylov kampaniyalari strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, parlamentar xotin-qizlarni maxsus dastur asosida malaka oshirishini tashkil qilish va h. k.

Oliy ta'limning xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada yuksaltirishga ko'rsatayotgan ta'sirini kuchaytirish, O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarida genderga oid ta'limni joriy etish orqali xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini kengaytirish zarur. Genderga oid maxsus kurslarni o'qitishni yirik davlat universitetlarining sosiologiya, hukuq, psixologiya, pedagogika, politologiya, jurnalistika, ijtimoiy soha, tarix, filologiya va falsafa bo'linmalariga kiritish, studentlar va magistrantlar qiziqishini gender mavzuiga qaratish lozim. Gender ta'limi oliy va o'rta ta'lim davlat standartlariga kiritilishi, ya'ni institusion maqom olishi lozim.

Davlatning samarali gender siyosatini shakllantirishga yordam beradigan chukur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarur. Bundan tashqari jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan siyosiy sohada O'zbekiston xotin-qizlarining faolligini oshirish yo'llarini qidirish lozim. Xotin-qizlarning siyosiy va iktisodiy yuksalishi mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha kuchli bilimga ega olimlar va mutaxassislarga zarurat bor. «Xotin-qizlar» mavzusiga doir ilmiy tadqiqotlarni faollashtirishning

muhim omillaridan biri - davlat, nohukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan genderga oid tadqiqotlarni moliyalashning samarali mexanizmlarini topishdir.

Xotin-qizlarning jamiyat siyosiy hayotida yanada faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadigan axborot resurslarini to'la shakllantirish maqsadida kutubxona fondlarida, kitob do'konlarida gender va xotin-qizlar mavzusiga doir adabiyotlarning mavjudligi masalasini o'rganish, nashr qilinishi va aholi o'rtasida tarqatilishi kerak bo'lgan o'quv va ommabop adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish va axborot resurslarining qishloq xotin-qizlariga yetib borishiga e'tibor qaratish lozim.

Boshqa davlatlarning gender tengligiga erishish borasidagi ijobiy tajribasi, amaliyotini o'rganish maqsadida ular bilan tajriba almashish tizimini yaratish.

Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan xulosa va tavsiyalarni e'tiborga olish va ularni amaliyotda qo'llash quyidagilar uchun imkoniyat yaratadi:

1. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga doir muammolarni hal qilish bo'yicha davlat, jamiyat, oila va fuqarolarning kuchini birlashtirish;

2. Milliy qonunchilikni xotin-qizlar huquqlari bo'yicha xalqaro andozalargi muvofiqlashtirish;

3. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlariga oid asosiy qonunni qabul qilish.

4. O'zbekistonda gender tengligiga erishish strategiyasini ishlab chiqish, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash sohasida davlat va nodavlat tuzilmalari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab olish;

5. Xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy hayotda ishtirokini ta'minlash bo'yicha qonunchilik faoliyatining konsepsiyasini ishlab chiqish;

6. Gender tengligi sohasidagi siyosiy partiyalar va NNTlarining asosiy vazifalarini aniqlab olish;

7. Xotin-qizlar qo'mitasining roli va ta'sirini kuchaytirish.

8. Xotin-qizlar NNTlarining ahvolini yaxshilash;

9. Davlat organlaridagi turli rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan erkaklar va xotin-qizlar soniga oid ma'lumotlar bankini yaratish;

10. Xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini ta'minlash sohasida axborot-ma'rifiy faoliyatning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish;

11. Yetakchi-ayollarni qullab-quvvatlashning dolzarb masalalarini aniqlash;

12. Xotin-qizlarning siyosiy huquqlariga doir masalalar bo'yicha Uzbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik sohalarini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari bir tomondan, jinsiy mansubligidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining tengligini tan oladi, ikkinchi tomondan, xotin-qizlar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha kafolatlarni nazarda tutadi. Bunday kafolatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin¹:

- homiladorligi tufayli yoki yosh bolasi borligi tufayli ayollarning ishga olinishini rad qilish va ish haqining kamaytirilishining taqiqlangani. Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatganlik uchun ishga olish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar (Uzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148-moddasi);

¹ Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi: 1993 й. 5-сон 223-м.; Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi: 1998 й. 5-сон 102-м.; 2001 й. 5-сон 89-м., 2002 й. 1-сон 20-м.

- kuchli ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga, ya'ni ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch keladigan va mehnat bozorida teng sharoitda raqobatga bardosh bera olmaydigan, shuningdek, yolg'iz ota-onasi hamda o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarga yoki nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalarga qo'shimcha kafolatlar berilgani¹. (Bandlikka ko'maklashuvchi davlax fondi ko'magida qo'shimcha ish joylarini yaratish; ta'lim olishning maxsus dasturlarini tashkil qilish; qayd etilgan toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga bunday shaxslar uchun kam bo'lsada, ish o'rinlari ajratishini belgilash va boshqalar);

- homilador ayollarni va uch yeshgacha farzandi bo'lgan ayollarni ishga olishda dastlabki sinov muddatlarini belgilashga yo'l qo'ymaslik;

- xotin-qizlardan noqulay mehnat sharoitidagi ishlarda va yer ostidagi ishlarda «foydalanishni taqiqlash, shuningdek xotin-qizlar uchun belgilangan normalardan ortiq og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishiga yo'l qo'ymaslik;

- xotin-qizlarga homiladorligi tufayli va tug'ish bo'yicha ta'til berish, bunda ta'til kunini tug'ishga qadar yetmish kalendar kuni va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar kuni (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda - yetmish kalendar kuni) qilib belgilash. Ta'tilning barcha kunlari uchun ayolning o'rtacha ish haqining 100 foizi miqdorida davlat ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha nafaqa to'lash²;

- homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagach, ayolning xohishiga ko'ra bolani parvarishlash uchun ta'til berish:

- a) bola ikki yoshga to'lguniga qadar O'zbekistonda belgilangan eng kam oylik ish haqining 200 foizi miqdorida nafaqa to'lash;

¹Узбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг Ахборотномаси: 1998 й. 5-6-сон 97-м.; 1999 й. 1-сон 20-м., 5-сон 124-м., 9-сон 229-м.

² .Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси: 2006 й. 6-сон 260-м.

b) bola ikki yoshga to'lgandan so'ng ish haqi saqlanmagan holda bola uch yoshga to'lgunicha ta'til berish;

- ikki yoshga to'lmagan bolasi bor va ishlashni xohlayotgan ayollarga ish kuni davomida bolani ovqatlantirishi uchun ish vaqtiga kiradigan va o'rtacha ish haqi bo'yicha haq to'lanadigan tanaffuslar berishning belgilangani;

- uch yoshga to'lmagan bolasi bor va davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan muassasa va tashkilotlarda ishlaydigan ayollar uchun mehnat haqini kamaytirmasdan qisqartirilgan (35 soat) ish haftasini joriy etish;

- ish beruvchiga, tibbiy xulosaga ko'ra homilador ayollarga ishlab chiqarish me'yorlarini, xizmat ko'rsatish me'yorlarini kamaytirish yoxud homilador ayollarni, shuningdek, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni nisbatan yengil ishga o'tkazish yoki ishlab chiqarishning noqulay sharoitdagi ishidan ozod qilish, bunda avvalgi ishi uchun to'lanadigan haqni saqlab qolish vakolatining berilganligi;

- homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari, dam olish va bayram kunlarida ishga jalb qilishni va xizmat safariga jo'natishni taqiqlash. Yana shuni ta'kidlash lozimki, homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga faqat bu ishning ona va bola sog'ligiga xavf tug'dirmasligi to'g'risidagi tibbiyot xulosasi mavjud bo'lgandagina jalb qilish mumkin;

- ish beruvchining homilador ayollarning yoki o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi bor (nogiron bo'lsa - o'n olti yoshgacha) ayollarning, shuningdek qaramog'ida yosh bolalari bo'lgan ayollarning iltimosiga ko'ra to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasini o'rnatish vakolatini mustahkamlash;

- homilador ayollar va tuqqan ayollar uchun ularning xohishiga ko'ra homiladorlik va tug'ish ta'tili oldidan yoki undan keyin yoxud bola parvarishlash ta'tilidan so'ng ta'til berish;

- shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lmagan bir yoki undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolgiz onaga (beva ayol va yolg'iz erkaklar, nikohdan ajrashganlar, yolg'iz onalar) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan xarbiy xizmatchilarning xotinlariga mehnat ta'tilidan o'z xohishlariga ko'ra yozgi mavsumda yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa davrda foydalanish huquqining mustahkamlangani;

- ikki yoki undan ortiq o'n ikki yoshga to'lmagan bolani yoki o'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ayollarga davomiyligi uch kundan kam bo'lmagan yillik qo'shimcha ta'til berish va ularning xohishiga ko'ra ish haqi saqlab qolinmagan holda davomiyligi o'n to'rt kundan kam bo'lmagan muddatda yillik ta'til berish;

- nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (vasiyga, homiyga) u o'n olti yoshga to'lgunga qadar bir oyda bir marta davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lanadigan qo'shimcha dam olish kuni berish;

- homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra tugatilishiga yo'l qo'ymaslikning mustahkamlangani. Bu qoidadan faqat bir holat - tashkilotning tugatilishi istisnodir, biroq bunday holatda mehnat shartnomasining tugatilishiga ayolni boshqa ishga joylashtirish sharti bilangina yo'l ko'yishdi, bu holat mehnat bo'yicha

mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladi va ayol ishga joylashtirish davri mobaynida qonunchilikda belgilangan ijtimoiy to'lovlar bilan ta'minlanadi.

Shunga ahamiyat berish kerakki, Uzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra (238-modda), ayollarga onalik bilan bogliq holda beriladigan kafolatlar va imtiyozlar (tungi ishlarga va ish vaqtidan tashkari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etishni va xizmat safarlariga yuborishni cheklash, shuningdek qo'shimcha ta'tillar berish. imtiyozli ish rejimlarini o'rnatish hamda

mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan boshqa kafolat va imtiyozlar), onasiz bolalarni (ona vafot etgan, onalik huquqlaridan mahrum etilgan, uzoq vaqt davolash muassasalarida bo'lgan va bolalari to'g'risida ona sifatida g'amxo'rlik qilmagan boshqa hollarda) tarbiyalayotgan otalarga, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning vasiylariga (homiylariga) ham tatbiq etiladi.

Ko'rilayotgan kafolatlar va imtiyozlar, shuningdek ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni amalda tarbiya qilayotgan buviga, buvaga yoki boshqa qarindoshlarga ham beriladi.

Ayollarga beriladigan qayd etilgan kafolatlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, «Aholining bandligi to'g'risida» gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risi-da» gi va boshqa qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Mehnat kodeksiga muvofiq, qonunchilikda belgilangan xodimning mehnat huquqlari va kafolatlari ish beruvchi tomonidan ta'minlanadi. Korxonaning hiech qanday ichki hujjatlarida, xodim bilan tuzilgan hiech qanday shartnomada boshqa me'yoriy hujjatlarda ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan yomon shartlar bo'lmasligi kerak. Agarda mehnat hakidagi kelishuvlar va shartnomalarga bunday shartlar kiritilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 5-moddasiga asosan ular haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

Binobarin, bular xotin-qizlar uchun qonunchilikda belgilangan minimal darajadagi kafolatlar va imtiyozlardir. Bu bir tomondan ushbu darajaning umummajburiy ekanligini bildirsa, ikkinchi tomondan, qonunchilikda belgilangan ushbu kafolatlar va imtiyozlarga nisbatan qo'shimchalar ravishda jamoa shartnomalari yoki yakka shartnomalar tartibida belgilanishi mumkinligidan dalolatdir. Shuni ta'kidlash muhimki, Xotin qizlar uchun jamoa shartnomalari, kelishuvlar va yakka tartibdagi mehnat shartnomalarida belgilangan qo'shimcha

kafolatlar va imtiyozlar ish beruvchilar uchun qonunchilikda belgilangan kafolatlar kabi majburiydir¹.

Xotin-qizlar uchun ko'zda tutilgan bir qator qo'shimcha huquq va kafolatlar (erkaklar uchun belgilanganiga nisbatan yoshroq va kamroq mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda yoshi bo'yicha pensiyaga chiqish; ishlamayotgan onaning (o'gay onaning) yosh bolalarini (o'gay bolalarini) har bir bolaning uch yoshga to'lgunicha, umumiy hisobda olti yildan oshmagan holda, parvarishlash vaqtini pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga kiritish; besh va undan ko'p bolani tug'ib, ularni sakkiz yoshgacha tarbiya qilgan ayollarning, ularning umumiy ish staji 15 yildan kam bo'lmasa, yoshi bo'yicha pensiyaga barvaqtroq, belgilangan yoshdan besh yil avval chiqishi imkoniyati va h. k.) O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» gi qonunida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq ba'zi qo'shimcha kafolatlar oilaning boshqa a'zolariga ham taalluqli bo'ldi. Agar, bola uch yoshga to'lgunga qadar beriladigan ta'til avval faqat bolaning onasiga berilgan bo'lsa, hozirgi qonunchilikda bunday ta'tilni kim olishi masalasini oilaning o'zi hal qilishi ko'rsatilgan. Bugungi kunda bola parvarishlash bo'yicha ta'tilni to'la yoki qismlarga bo'lib faqat ona emas, balki bolani tarbiya qilayotgan otasi, buvisi, buvasi yoki boshqa qarindoshlari ham olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun ona va bola manfaatlariga xizmat qiladigan qo'shimcha kafolatlar va huquqlarning erkaklarga berilishi juda muhim yangilikdir. Chunonchi, Mehnat kodeksining 144-moddasiga asosan ishlayotgan erkaklarga yillik ta'til ularning xohishiga binoan xotining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida beriladi².

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi:

¹Ўзбекистонда Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий- ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

² O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 144-moddasi. Toshkent. 2010 y.

- erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquklarining tengligini nazarda tutadi;

- xotin-qizlarga ularning fiziologik xususiyatlarini va ona bo'lishini hisobga olgan holda qator qo'shimcha huquqlar va kafolatlarni berishni nazarda tutadi;

- ayollarga beriladigan kafolatlar va imtiyozlarning ko'pini otalarga yoki ona tarbiyasidan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan boshqa qarindoshlarga berilishini ta'minlaydi;

- qonunchilikda belgilangan holatlarda, oila a'zolariga muayyan huquqdan (masalan, bolani parvarishlash bo'yicha ta'til olish huquqi) kim (bolaning ona, otasi, buvisi, buvasi yoki boshqa qarindoshi) foydalanishini mustaqil hal qilish imkoniyatini beradi.

- ayollar va bolalar manfaatini ko'zlab, bolaning otasiga qo'shimcha huquq va kafolatlar berishni nazarda tutadi erkaklarga yillik ta'tilni ularning xohishiga binoan xotinining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida berish.

Keyingi yillarda aholining, jumladan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha, kasanachilik, kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish uchun sha-roitlar yaratish borasida davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar ancha kengaydi.

Ushbu maqsadlarga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda kabul qilingan «Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3706-farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvarda qabul qilingan 1-qarori muhim omil bo'lmoqda.

Ushbu hujjatlar aholini kasanachilik sohasiga keng jalb qilish uchun quyidagi qulay sharoitlarni yaratadi:

- kasanachilar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun kasanachilarga yuklatilgan ishni bajarish uchun foydalanishga topshirilgan beg'araz mulkka (asbob-uskunalar, jihozlar) bo'lgan soliq bo'yicha imtiyozlar belgilash, shuningdek, mehnat shartnomalariga asosan kasanachilarga to'lanadigan haq miqdorida yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan ozod qilish;

- kasanachilar mehnatini ijtimoiy himoyalash va muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan choralar tizimini mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligining bergan ma'lumotlariga qaraganda, kasanachilikni rivojlantirish natijasida 2006 yilda 60 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan, bulardan 30 mingdan ortig'i xotin-qizlar uchun mo'ljallangan. Bunda jami ish o'rinlarning qariyb yarmi qishloq joylarida tashkil qilingan¹.

Mehnat bo'yicha bandlikni kengaytirish, mehnat va ijtimoiy himoya bo'yicha davlat organlari faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar dasturiga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 06 apreldagi PQ-6166 - qarori bilan tasdiqlangan) ko'ra bandlikka oid hududiy dasturlar asosida 2007 yildan boshlab har yili, 550 mingdan kam bo'lmagan yangi ish o'rnini, jumladan quyidagilarni yaratish ko'zda tutilmoqda:

- kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish hisobidan 320 ming ish o'rni;

- kasanachilikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 160 ming ish o'rni;

- amaldagi korxonalarni moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish, yangi yirik ishlab chiqarish obyektlarini ochish, ijtimoiy va bozor infrastrukturasi rivojlantirish hisobidan 70 ming ish o'rni.

¹ Ўзбекистон Республикаси Қонунлар тўплами. 2006 й. №2. 9 –м.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, mazkur Dasturda bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui ham nazarda tutilgan. Shu bilan birga ushbu Dasturda xotin-qizlarning bandligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarning yo'qligi kishini o'ylantiradi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning kamsitilishini bartaraf etish va ularni mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun barcha huquqiy sharoitlar yaratilgan. Xotin-qizlar va erkaklarning tengligi va jinsiy kamsitishlar Konstitusiyada mustahkamlab qo'yilgan. Xotin-qizlar uchun qonunchilik bilan mehnat huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyat hamda ularni himoyalash kafolatlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 37-moddasi, shuningdek Mehnat kodeksining 6-moddasi mehnatga oid munosabatlarda xotin-qizlarni kamsitishni taqiqlaydi. Bunga ko'ra kamsitilgan shaxslar, keltirilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish uchun belgilangan tartibda sudga murojaat qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, ular uchun mehnat sohasida oilaviy majburiyatlarini bajarishida qo'shimcha kafolatlar belgilangan - bular homilador ayollar va yosh bolasi bor ayollarni ishga olishda (bo'shatishda) qo'shimcha kafolatlarning berilishi, nokulay mehnat sharoitiga ega ishlarda ayollar mehnatidan foydalanishni taqiqlash, homiladorligi va tug'ishi tufayli hamda bola parvarishlashi uchun ta'til berish, qo'shimcha dam olish kunlari va ta'til berish va boshqalar.

Hukumat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oilalar daromadlari ko'payishini qo'llab-quvvatlash ko'p jihatdan xotin-qizlarni ishlab chiqarish sohasigajalb qilishga bog'liq ekanligini anglab, mehnat faoliyatini va bola tarbiyasi bilan bog'liq g'amxo'rlikni samarali moslashtirish uchun tegishli sharoit yaratishga muhim e'tibor qaratmoqda.

Keyingi yillarda respublikada onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha qonuniy va normativ aktlarning bajarilishi yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

▶ oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirishda yetakchi xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish;

▶ oilani mustahkamlash, onalar va bolalarning moddiy ahvolini yaxshilash uchun tegishli iqtisodiy sharoitni yaratish, bolalar va o'smirlar orasida ma'naviy buzilishning oldini olish;

▶ yosh sog'lom oilani shakllantirish, bola tug'ilganda, uni parvarishlashda, emlashda va boshqa turdagi tibbiy xizmatlardan foydalanishda davlat tomonidan bepul yor-dam ko'rsatish;

- umum milliy miqyosda bepul 12-yillik umumta'lim dasturini amalga oshirish, yigit va qizlarning oliy va o'rta maxsus muassasalarida ta'lim olishi uchun davlat grantlari orqali tegishli mablag' ajratish;

- aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari - nogiron bolalar, yetimlar, kam ta'minlangan oila farzandlarini davlat muhofazasiga olish;

- jamiyatda oila, ona va bolarivoji uchun maxsus sharoit, ahloqiy norma va qoidalarni shakllantirish.

O'zbekistonda xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ularga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy vositalar mavjud. Davlat va jamiyat miqyosida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiladigan tuzilmalar yaratilgan. Bular - Savdo-sanoat palatasi, Biznes fond, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish fondi, tadbirkor ayollar assosiasiyasi va h. k.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi «Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin - qizlarning rolini oshirish to'g'risida»gi farmoni respublika hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bolalarni tarbiya kilish sharoitini yaxshilash va ayollarning mehnat faoliyatidagi qiziqishlarini oshirish maqsadida «Ayollar uchun qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida» qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, ayollarni ijtimoiy, siyosiy sohaga faolroq jalb etish va ularning oiladagi rolini oshirish maqsadida 2004 yil 25 mayda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Uzbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 2004 yil 29 iyunda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Xotin-qizlarning syosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha o'zgarishlar siyosiy sohaga ham ta'sir qildi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xotin-qizlarning deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishida 30 foizlik kvota belgilandi.

Bu qoida xotin-qizlarning saylovoldi kampaniyasidagi faolligini oshiradi va ularning deputat etib saylanishi borasidagi imkoniyatlarini kengaytiradi hamda Uzbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida ayollar sonining ko'payishi uchun sharoit yaratadi. Hozir Qonunchilik palatasining deputati 21 ayol (18 foiz) va 18 ayol (15 foiz) Oliy Majlis Senatining a'zosi hisoblanadi. Ijro organlarida ayollarning umumiy soni 3,4 foiz, sud organlarida esa 22,7 foizni tashkil qiladi.

Demokratiya va huquq tamoyillariga nafaqat davlat organlari, balki alohida shaxslar tomonidan ham rioya etilishi huquqiy davlat uchun muhimdir. Bunday davlatda insonning huquq va erkinliklariga hurmat, inson qadrini tahqirlash,

insonga nisbatan zo'ravonlik qilish, ayniqsa, qullik, odam savdosi va uni ekspluatasiya qilish bilan mutanosib emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'tish davrining eng muhim va yechimi kechiktirib bo'lmaydigan muammolaridan biri - oiladagi zo'ravonlik muammosidir. Umumiy ko'rinishda oiladagi zo'ravonlikni quyidagicha farqlash mumkin: xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, bolalarga nisbatan zo'ravonlik va qarindoshlarga nisbatan zo'ravonlik.

Oilaviy munosabatlarda teng huquqlilikka erishish - inson huquqlari tizimiga doir ijtimoiy-demokratik institutning tarkib topishi natijasidir. Uning vujudga kelishiga jinslarning davlat tuzilmalarida, hukumat bilan va o'zaro munosabatlarida tegishli normalarni topishning murakkab jarayoni sabab bo'lgan. Tarix shundan dalolat beradiki, teng huquqlilik g'oyasi hamda uni amalga oshirish odob-ahloq, ma'naviy-madaniy va diniy jihatlardan iborat majmuani o'z ichiga oladi.

Xotin-qizlar deyarli barcha davlatlar aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi, shuning uchun aholi yarmining huquqlari poymol qilinganda, amalda demokratiyaga asoslangan jamiyat to'g'risida gapirish qiyin. Xotin-qizlar ustidan zo'ravonlik muammosi davlatdagi nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit va yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratishdagi qoloqlikdan dalolat beradi. Garchi insonga nisbatan barcha turdagi zo'ravonlik va kamsitishlarni bartaraf etish taqozo etilsa-da, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik alohida ahamiyatga muhtoj, chunki bu holat butun jamiyatga tegishlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2009 y.
6. Barkamol avlod orzusi
7. Uparvleniye, sennosti i obraz jizni molodeji v stranaz Sentralnoy Azii. T.1.1990 g
8. Osenka urovnya sosialnykh nastroyeniy molodeji Uzbekistana. Metodologiya, razrabotka. 1998 g.
9. O'zbekistonda xotin-qizlar, qonun va jamiyat muammolari. Toshkent, 1999. – 63 bet.
10. Sosialnaya psixologiya: uchebnoye posobiye. Otv. red. A.L.Juravlev. M.:PERSE, 2002.
11. Tokareva V.A. Psixologiya nravstvennogo razvitiya lichnosti studenta. - Tashkent. 1989.
12. Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
13. Feldshteyn D.I. Psixologiya vospitaniya podrostka. - M.: Znaniye, 1978.
14. Filippova Yu.V. Psixologicheskiye osnovy raboty s semyey. Yaroslavl, 2003.
15. Shevchenko I.O., Shevchepko P.V. Bolshaya ssmya -kakaya ona? //J. Sosiologicheskiye issledovaniya. - M., 2005, №1.
16. Shneyder L.B. Psixologiya semeynyx otnosheniy. -M.: Aprel-Press, Izd-vo EKSMO-Press, 2000.
17. Yakovlev A.M. Sosialnaya struktura obshestva. -M.: Ekzamen, 2003.

18. Gorshkova I. D., Shurmgina I. I. Nasiliye nad jenami v sovremennix rossiyskix semyax. - M.: MAKS Press, 2003 god.

19. Xalkechev M.N. Rojdayemost i reproduktivnne ustanovki molodeji Karachayevo-Cherkesii//J. Sociologicheskiye issledovaniya. 2005, №8.

20. BMT Bosh Kotibining gender masalalar bo'yicha maslahatchisi Rashel Mayandjaning ma'lumoti.

21. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risida Deklarasiya, BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1994 yil 23 fevralda kabul kilingan.

22. Anishik O. O. Nasiliye nad jeshsinami v semye: problemi dostupa jertvy k spravedlivomu razresheniyu konflikta s agres-sorom// Yuridicheskiy analiticheskiy jurnal. № 1-2 (13-14), 2005. S. 117-13.

23. O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami. 2006 y. №2. 9 –m.

24. O'zbekistonda Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Toshkent 2008 y.

25. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi: 1998 y. 5-6-son 97-m.; 1999 y. 1-son 20-m., 5-son 124-m., 9-son 229-m.

26. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi: 2006 y. 6-son 260-m.

